Менежернинг ҳаётий принциплари:

- адолатлилик;
- халоллик ва самимийлик;
- инсоний қадр-қимматнинг юқорилиги;
- хизмат қилиш ёки умумий мақсадга эришишнинг бирламчилиги;
- ишда сифат ва мукаммаллик;
- чегарасиз салоҳият;
- ўсиш принципи – сабр-қаноат, ғайрат-шижоат ва матонат талаб қилувчи салоҳият ва ривожланиш қобилятларини юзага чиқариш.

Бошқариш, албатта, бирор шахс томонидан, яъни раҳбар томонидан амалга оширилади. Менежментда иккита бир–бирига жуда яқин бўлган тушунчалар бор: «раҳбар» ва «сардор». Иккаласи ҳам кишиларга таъсир ўтказа олиши билан ажралиб туради. Лекин иккаласини бир хил тушунмаслигимиз керак. Раҳбарлик – бу айрим кишига ёки кишилар гуруҳига ташкилот мақсадларига эришиш учун таъсир ўтказа олиш имконияти бўлса, Сардорлик - айрим кишига ёки кишилар гуруҳига ташкилот мақсадларига эришиш учун таъсир ўтказа олиш қобилиятидир.

Баъзи бир томонлар, уларнинг самарали раҳбар ва сардор бўлишига асос бўлувчи хусусиятларидир. Жумладан, билими ва интелектуал салоҳияти, таъсирчан ташқи кўриниши, ҳаллоллиги, соғлом фикрлаши, ташуббускорлиги ҳамда махсус, ижтимоий ва иқтисодий маълумоти (билимдонлиги) ва ўзига ишончнинг юқори даражада эканлиги.

Сардор ва раҳбарнинг умумий вазифалари:

- Сардор ва раҳбар ижтимоий гуруҳ аъзолари орасида уйғунлаштирувчи ролни бажаради;
- Сардор ҳам, раҳбар ҳам жамоага иқтисодий, ижтимоий ва руҳий таъсир кўрсатади, лекин уларда таъсир кўрсатиш воситалари турлича бўлади;
- Сардор ҳам раҳбар ҳам субординация(бўйсуниш) муносабатларидан фойдаланади.

Америкалик машхур олим Питер Друкер раҳбар ва сардорнинг тутган ўрнига жуда ҳам тўғри ва фалсафий баҳо берган эди: «Бошқариш – бу ишларни тўғри бажариш, сардорлик эса тўғри ишларни бажаришдир» ва «ютуқлар зинапоясидан кўтарилишдаги самарадорлик бошқаришга (рахбарликка) боғлиқ бўлса, сардорлик эса нарвонни керакли чўққига қўйишни аниқлаб беради»[4].

Одамларга (гуруҳга) раҳбарлик қилувчи шахснинг обрўси унинг ва унга эргашган гуруҳнинг муваффақиятини белгиловчи асосий омил ҳисобланади. Раҳбар обрўси атрофдагиларнинг, айниқса унга эргашувчиларнинг ишончи орқали ифодаланади.

Бошқаларнинг ишончи эса қуйидагилар асосида шаклланади, яъни раҳбарнинг:

- хатти-ҳаракатлари табиийлиги;
- муомалада эркинлиги;
- атрофдагиларга нисбатан чуқур ҳурмат ва эҳтиромдалиги;
- ўзини ва бошқаларни ноқулай ҳолатга солмаслиги;
- имконияти борича бошқаларни хафа қилмаслиги;
- бошқаларнинг ишига аралашмаслиги;
- бўлар-бўлмасга(қийинчиликлардан) нолимаслиги;
- камтарлик ва арзимаган вазиятларда кўзга ташланмаслиги;
- ўзининг имкониятларини ҳаддан ташқари паст баҳоламаслиги(нафақат бошқаларни, ўзини ҳам ҳурмат қилиш);
- сўзи мазмунан мантиқий, асосли ва қатъий, лекин юмшоқ шаклда ифодаланиши;
- бошқалар (сухбатдош) сўзини бўлмаслиги ва бошқалар.

Замонавий менежернинг асосий сифат белгиларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- бошқалардан юқори бўла олиш қобилияти;
- ўзига ишончи;
- эмоционал босиқлиги;
- стрессларга чидамлилиги;
- ғалабага интилувчанлиги;
- масалаларни ижодий ечимини топа олиш қобилияти;
- жавобгарлиги;
- тадбиркорлиги;
- ташаббускорлиги;
- мустақил фикрга эга бўлишлиги;
- ишончлилиги;
- киришувчанлиги.

Шу биан бирга замонавий менежер қуйидаги умумий сифат кўрсаткичларига эга бўлиши керак.

- ✓ фидоий, жонкуяр, ҳалол ва маънавий-аҳлоқий жиҳатдан покиза.
- ✓ малакали, ҳар жиҳатдан маълумотли, ўз соҳасининг билимдони, тадбиркор ва ўз ишининг устаси.
- ✓ ўта масъулиятли, талабчан ва қатъиятли, эътиборли ва кечиримли.
- ✓ таваккал қилувчи, ташаббускор, янгиликка интилувчи ва уни ҳис эта олувчи.
- ✓ сезгир ва ҳаракатчан.
- ✓ юқори иш қобилиятига эга ва соғлом бўлиш.

Юқоридагилар билан бир қаторда замонавий менежер қуйидаги асосий хислат ва фазилатларни ўзида мужассам этиши зарур. Ташкилотда менежер хатти-ҳаракатининг маданияти. Ҳар бир менежер – бу, бир катор қобилиятларга эга бўлган ноёб шахсдир. Унинг хатти-ҳаракати маданияти бир қанча ташкил этувчилардан: ижтимоий-фукаролик етуклиги, меҳнатга муносабати, билим даражаси, ташкилотчилик ва тизимли бошқара олиш қобилияти, янгиликни қўллаб-қувватлай олишлиги ва табиатининг маънавий-аҳлоқий томонларидан иборат бўлади.

Раҳбарнинг ижтимоий-фукаролик етуклигига, ўзининг шахсий манфаатларини жамоа манфаатларига буйсундира олиши, танқидни қабул қила олиши, ўзига танқид кўзи билан қараши, ижтимоий фаолиятда фаол қатнашиши ва бошқалар киради.

Раҳбарнинг билим даражаси – малакасининг мавжудлиги, яъни ўзи эгаллаб тўрган лавозимга мос келадиган малакага эга бўлиши, бошқаришнинг объектив асосларини билиши ва ўз фаолиятида қўллай олиши, замонавий бошқариш ташкилий-техникаси имкониятларини билиши ва ўз фаолиятида қўллай олиши ҳамда умумий билимдонлигини ўз ичига олади.

Раҳбар амалда ўзининг ташкилотчилик ва тизимли бошқара олиш қобилиятини кўрсата олгандагина ташкилотчилик ролини мувоффақиятли бажариши мумкин. Бунинг учун раҳбар ўз ишини олдиндан тузилган шахсий режасига асосан олиб бориши ва унинг ишчи-ходимларга, уларнинг тажрибаси, қобилияти, шахсий хислатларини ҳисобга олган ҳолда вазифаларни тақсимлашидир.

Раҳбар табиатининг манавий-аҳлоқий томонларига, унинг виждонлилиги, софдиллиги, инсофлилиги, принципиаллиги, ўзини тута билиши, мулойимлиги, мақсад сари интилиши, одамшавандалиги, ўз ортидан одамларни эргаштира олиши, камтарлиги, оддийлиги, яхши саломатликка эга бўлиши ва ташқи кўринишининг озода ва саранжом-саришталиги киради.

Раҳбар – нафақат ташкилотдаги ходимлар билан инсоноий муносабатларда бўлиши балки, ижтимоий этика нуқтаи назаридан, меҳнат шартономаси тугаётган ходимлар билан ҳам инсоний муносабатларда бўлиши талаб қилинади. Бу ерда раҳбар ходимлар (бўйсунувчилар) билан қай даражада «дўстона муносабатларга кириши мумкин ва зарур» деган савол пайдо бўлади.

Одатда раҳбар ўз ходимларини қуйидаги учта механизм ёрдамида бошқаради:

- ❖ эгаллаб турган мансаби, лавозимига қарамасдан обрўли сардор ҳисобланиши.
- ❖ ходимларга қараганда ахборот борасида устунликка эга бўлиши.
- ❖ бошлиқ «маъмуриятчидир», у ходимларга нисбатан тақдирлаш, лавозим поғонасида юқорига кўтариш ва жазолаш имконига эга.

Юқоридаги замонавий менежер эга бўлиши зарур бўлган фазилатлар, хислатлар ва сифатлар билан бир қаторда улар бошқарув фаолиятида йўл қўйиши мумкин бўлган хатолар, салбий ҳолатлар ва камчиликларни ҳам ўрганиш ва тадқиқ қилиш зарур деб ҳисобладик ҳамда уларни сизларнинг хукмингизга хавола қилишни лозим топдик.

Лавозимдан бўшаб кетмасликнинг 8 та қоидаси.

1. Одамлар билан мулоқотда хушмуомала, илтифотли, дилкаш ва ёқимли бўлиш.
2. Мунтазам имконият қидириш. Чет тилларни ўрганиш. Соҳангиз бўйича жаҳон ишбилармон доираларида мавжуд ҳолатларни билишга ҳаракат қилиш.
3. Бугунги ишни эртага қўймаслик. Иш вақти сиз учун чегара бўлмасин. Агарда сизни иш вақтидан олдин ёки кейин кўришса, бу эътиборсиз қолмайди.
4. Бошқалар билмайдиган ва қила олмайдиган ишларни билишга ҳамда қила олишга интилиш.
5. Доимо ўз малакангизни мунтазам ошириб бориш.
6. Олижаноб хатти-ҳаракатлар қилишни билиш. Барча чора-тадбирларни ишга солиб ташкилот муваффақиятини таъминлашга интилиш.
7. Ахборот-коммуникация технологияларини ўрганиш.
8. Доимо «Ҳа» дейишни ўрганиш. Салоҳият етмайдиган ишларни қилишга таваккал қилиш. Ишдан кетишнинг энг қисқа йўли - «Бу менинг ишим эмас» дейишдир.

Раҳбар (менежер) нинг ўн учта «ўнглаб бўлмас хато»лари.

1. Шахсий жавобгарликдан қочиш.
2. Ходимлар малакасини оширишга қаршилик қилиш.
3. Рағбатлантиришни яхшилаш ўрнига натижаларни текшириш.
4. Ходимлар фаолиятини баҳолашда ўта принципиал бўлиш.
5. Натижани муҳимлигини эсдан чиқариш.
6. Барча ходимларга бир ҳилда раҳбарлик қилиш.
7. Эътиборни мақсадга эмас, муаммога қаратиш.
8. Дўст эмас, бошлиқ бўлиш.
9. Имтиёз ва енгилликлардан фойдаланиш.
10. Танқидни «бўғиш».
11. Ташаббус учун жазолаш.
12. Айтилган вақтга кечикиб бориш.
13. Ваъданинг устидан чиқмаслик.

Менежер ўсишидаги муваффақиятсизликнинг беш сабаби.

1. Иш ҳақини орттиришга ҳаддан ташқари интилиш.
2. Мансабга ҳаддан ташқари интилиш (мансабпарастлик).
3. Ўзига ўта зеб бериш.
4. Бошқалардан ажралмоқлик(яккаланмоқлик) «Инсон кўп нарсаларсиз яшаши мумкин, лекин инсонларсиз эмас». (Честерфильд)
5. Ҳис-туйғулар ва ўй-ҳаёлларни яшириш[6].

Бугунги раҳбарнинг инқирози нимада?

- бировни ёмонлаб кирган кишига қулоқ солганида;
- ўзини хаммадан кўпроқ биламан, деб ўйлаганида;
- ўтирган жойи фақат унинг учун деб билишида;

- кибрланиш ва манманликка берилиб кетишида;
- ортиқча мактовни ҳазм килишида;
- маддохларни олқишлаб, ҳақ талаб қилувчиларни ёмон кўрганида;
- ўзини арз қилувчининг ўрнига қўя олмаганида.
- ходимлар билан ўчакишганида;
- ходимларни нафсониятига тегишида;
- ташкилотда коррупция ҳолатларига йўл қўйганида;
- махаллийчилик ва таниш-билишчиликка берилганида;
- йил бошида йил охиридаги аҳволни тасаввур этмаганида;
- фидойиларни рағбатлантиришни унутганида;
- нафакага чиққач, нима билан шуғулланишини аниқ билмаганида.

Бугунги ислоҳотларни янада чуқурлаштириш, фуқоролик жамиятини ривожлантириш, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш йўлида ғов бўлиб турган муаммоларни ечиш, мавжуд заҳира ва имкониятларни ишга солиш, Давлат раҳбари илгари сураётган долзарб масалалар ва устивор вазифаларни муваффақиятли хал қилиш ва амалга оширишда замонавий менежерларнинг ўрни ва роли беқиёс эканлиги улар фаолиятини тизимли такомиллаштиришни, бошқарувнинг илғор усул ва услубларини қўллай олишни балиши, юқори масъулият билан ишлашини, фидоий бўлишини таъминлашимиз талаб этилмоқда.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, бугун сиз билан бизни олдимизда турган энг муҳим ва долзарб масала – бу бошқариш жараёнига менежерлик фаолиятига қобилиятли, билимли ва иқтидорли ёшларни жалб қилиш ва улар билан ишлаш масаласидир. Ёшлар бугун ўтмиш ва келажак ўртасидаги ишончли ва умидли кўприк вазифасини бажарувчи муҳим омилдир. Халқимиз бугун ёшларга ишоняпти, уларга умид кўзи билан қараяпти. Раҳбарлик ва Сардорлик фаолиятига лаёқати бор ёшларни излаб топиш, улар билан мунтазам ишлаш ва келажак учун мақсадли ва қўшимча тайёрлаш бугуннинг энг долзарб масаласи бўлиб қолмоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. 1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъят билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019 й.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари.–Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020 й.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.-Т.:«Ўзбекистон»,2021 у.
4. Стивен П.Робинз, Мари Коултер. Менеджмент. Москва 2008 год.
5. Майкл МЕСКОН, Майкл АЛЬБЕРТ, Франклин ХЕДОУРИ. Основы менеджмента. Изд-во: "ИД «Вильямс»", — 2008 г.
6. Тўхтабоев А.Т. Менежер фазилатлари / Амалий қўлланма. –Т.: «MATRIX PRINT» МЧЖ , 2008й. 172 б.
7. To‘xtaboyev A.T. Tashkiliy xatti-harakatlar.Darslik.–T.:“Universitet”, 2021y. 260 bet.
8. Шарифходжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент/Дарслик.–Т.:”Ўқитувчи”, 2000 й.

KELAJAK O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA 4 + 2 MODELI SAMARADORLIGI

Islamova Dilfuza Dilshodovna
Toshkent Amaliy fanlar universiteti, dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.15629206

Annotatsiya. *Ushbu maqolada uzluksiz ta’lim tizimidagi yangi islohotlar, xususan, oliy ta’lim va maktab amaliyoti o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlovchi “4+2” modeli tahlil qilinadi. Model asosida nazariya va amaliyot uyg‘unligi, pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish, xalqaro tajriba bilan solishtirma yondashuv beriladi.*

Kalit so‘zlar: *uzluksiz ta’lim, ta’lim islohotlari, 4+2 modeli, amaliy mashg‘ulot, pedagogik integratsiya, maktab-amaliyot.*

Аннотация. *В данной статье анализируются реформы непрерывного образования, особенно конструктивные изменения в интеграции высшего педагогического образования и школьной практики на основе модели «4+2». Описаны преимущества модели с точки зрения практической подготовки студентов и сопоставлены международные подходы.*

Ключевые слова: *непрерывное образование, образовательные реформы, модель 4+2, педагогическая практика, интеграция, школа и университет.*

Abstract. *This article analyzes reforms in the continuous education system, focusing on the constructive integration of higher pedagogical education and school practice through the “4+2” model. The paper explores how this model bridges theory and practice, enhances teacher competencies, and compares international practices.*

Keywords: *lifelong learning, education reforms, 4+2 model, teaching practice, pedagogical integration, school-university partnership.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yilda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida mamlakatda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, barcha bosqichlar o‘rtasida izchillik va uzviylikni ta’minlash, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg‘unligini kuchaytirish dolzarb vazifa sifatida ilgari surilgan. Jumladan, davlat rahbari ta’limda nazariya va amaliyotni bir-biridan ajratmaslik zarurligini ta’kidlab, quyidagicha fikr bildiradi: “Ta’limda nazariya va amaliyotni bog‘lash – bugungi davrning asosiy talabi. Pedagog kadrlarni tayyorlashda amaliyot bilan bog‘liq bo‘lmagan ta’lim — bu hayotdan uzilgan bilimdir.”

Mazkur fikrlar zamonaviy ta’lim jarayonida **nazariya va amaliyotning uzviy integratsiyasi** asosiy ustuvorliklardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Ayni paytda O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar oliy pedagogik ta’lim va umumta’lim maktablari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, **“4+2” modeli** zamonaviy ta’lim formatini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi.

“4+2” modeli – bu **4 kun nazariy ta’lim va 2 kun chuqurlashtirilgan amaliy mashg‘ulotlar** uyg‘unlashgan shaklidir. Ushbu model:

- talabalarni maktab muhiti bilan tanishtiradi;
- kasbiy kompetensiyalarni amaliy faoliyat asosida shakllantiradi;

- talabalarda mustaqil ishlash, refleksiya yuritish va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bugungi kunda o‘qituvchi shaxsining kasbiy yetukligi — ta’lim sifati va islohotlar muvaffaqiyatining kalitidir. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki barkamol avlodni tarbiyalovchi, innovatsion fikrlovchi, zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan yetakchi shaxs bo‘lishi kerak. Shu bois, pedagogik tayyorgarlikda **kasbiy, ma’naviy-axloqiy, kommunikativ va raqamli salohiyat** uyg‘unligiga e’tibor kuchaymoqda. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishi — bu **murakkab, izchil va reflektiv** jarayon bo‘lib, quyidagi komponentlar bilan tavsiflanadi:

- Kasbiy bilim va ko‘nikmalar: dars rejalashtirish, baholash, fan metodikasi.

- Ijodiy tafakkur va refleksiya: tahlil qilish, muqobil metodlarni qo‘llash, o‘z ustida ishlash.

- Pedagogik texnika va muloqot: nutq madaniyati, samarali fikr almashish, ijtimoiy psixologik muhit yaratish.

- Psixologik barqarorlik: stressga chidamlilik, o‘zini boshqarish, moslashuvchanlik.

- **Shaxsiy o‘sish va o‘zini anglash**: mustaqil tahlil, maqsad qo‘yish va unga erishish strategiyalari.

O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar natijadorligining muhim omillaridan biri — **bo‘lajak o‘qituvchilarni hayotga yaqin, kasbiy ehtiyojlarga mos tarzda tayyorlash**dir. **“4+2” modeli** aynan shu vazifani hal qiluvchi konstruktiv yondashuv bo‘lib, o‘qituvchi shaxsini shakllantirishda maktab amaliyotini nazariy bilimlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Ushbu modelni tizimli joriy etish orqali:

- universitet–maktab hamkorligi yangi bosqichga ko‘tariladi;
- o‘qituvchilik kasbining amaliy qirralari chuqur egallanadi;
- sifatli ta’lim beruvchi, ijodiy fikrlovchi va raqamli kompetensiyalarga ega kadrlar yetishib chiqadi.

Shu boisdan, **“4+2” modeli** – bu nafaqat ta’lim islohotlarining amaliy ifodasi, balki **kelajak pedagoglarini tarbiyalovchi strategik yo‘nalish**dir.

Pedagogik mahorat quyidagi tarkibiy komponentlar orqali namoyon bo‘ladi:

Kasbiy bilim va ko‘nikmalar: o‘quv rejalashtirish, dars o‘tish, baholash metodlari;

Ijodiy tafakkur va refleksiya: darsni tahlil qilish, yangicha metodlarni sinovdan o‘tkazish;

Pedagogik texnika va muloqot: notiqlik san’ati, tinglash va fikr bildirish madaniyati;

Psixologik barqarorlik: stressga chidamlilik, e’tiborni taqsimlash, o‘zini boshqarish;

Shaxsiy o‘sish va o‘zini anglash: o‘z imkoniyatlarini baholash, ustuvor maqsadlar belgilash.

Bu sifatlarning barchasi pedagogik amaliyot bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, **“4+2” modeli** o‘qituvchi shaxsining shakllanishida beqiyos imkoniyatlar yaratadi.

Uzluksiz ta’lim – bu insonning butun hayoti davomida ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondiradigan, bosqichma-bosqich bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimdir. Mazkur tizim maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, kasb-hunar

ta’limi, oliy ta’lim va katta yoshdagi aholining kasbiy malakasini oshirishni qamrab oladi. Bunda har bir bosqich oldingisiga asoslanadi va keyingi bosqich uchun zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasida 2023–2030-yillarga mo‘ljallangan “Uzluksiz ta’limni rivojlantirish strategiyasi” doirasida barcha bosqichlar o‘rtasidagi aloqadorlikni kuchaytirish, pedagogik uzviylikni ta’minlash, hamda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlarda quyidagi yo‘nalishlar ustuvor deb belgilangan:

- Bosqichlararo pedagogik integratsiya: maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha pog‘onada yagona ta’lim yondashuvlari, kompetensiyaviy model asosida ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarining uyg‘unligi ta’minlanmoqda.

- Ta’lim dasturlarining muvofiqligi: umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘quv reja va dasturlarni moslashtirish orqali dars mazmunida takrorlanish va bo‘shliqlarni bartaraf etish choralari ko‘rilmoqda.

- O‘qituvchilarning uzluksiz malaka oshirishi: har bir bosqichdagi pedagog xodimlar uchun professional rivojlanish yo‘nalishlari, innovatsion metodlar, AKT vositalaridan foydalanishga qaratilgan uzluksiz malaka oshirish modullari ishlab chiqilmoqda.

- Nazariya va amaliyot uyg‘unligi: oliy pedagogik ta’limda nazariy bilimlar bilan birga maktablarda muntazam amaliyot o‘tash tizimi – “4+2” modeli orqali yo‘lga qo‘yilib, bo‘lajak o‘qituvchilar real dars jarayonida faol ishtirok etmoqda.

- Raqamli integratsiya va monitoring: barcha ta’lim bosqichlarida raqamli platformalar (Masalan: “Bilim”, “Edu.uz”, “Test Edu”) orqali o‘quvchilar yutuqlarini baholash, o‘qituvchilar faoliyatini monitoring qilish, hamda ota-onalar bilan samarali aloqa o‘rnatish imkoniyati kuchaytirilmoqda.

- Xalqaro tajriba asosida milliy model: Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya kabi ilg‘or davlatlar tajribasi asosida O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga moslashtirilgan uzluksiz ta’lim modeli ishlab chiqilmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimi nafaqat bilimlar uzviyligini, balki har bir fuqaroning hayoti davomida o‘zini rivojlantirish imkoniyatini ta’minlovchi muhim strategik yo‘nalishdir. Shu bois, ta’lim siyosatining asosiy vazifasi – bu tizimda innovatsion metodlarni joriy etish, har bir bosqichda sifat kafolatlarini yo‘lga qo‘yish va jamiyatda o‘qituvchilik kasbining maqomini oshirishdan iborat.

Talabalar nazariy bilimlarni bevosita maktab muhiti bilan bog‘lab, o‘zlashtirgan pedagogik yondashuvlarni dars jarayonida qo‘llab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlaydi: dars rejalashtirish, sinfda ishlash, differensial yondashuv, kommunikativ salohiyat kabi jihatlar real tajriba orqali shakllanadi.

Amaliyot o‘tash jarayonida talabalar maktablarda yordamchi o‘qituvchi, amaliyotchi talaba vazifasida faoliyat yuritadi. Bu esa pedagogik jamoa ishini yengillashtiradi, ayniqsa kadr tanqisligi mavjud hududlarda vaqtincha bo‘lsa-da, sifatli pedagogik yordamni ta’minlaydi.

Kasbga bo‘lgan mas’uliyat, unga tayyorlanish bosqichlarining mukammalligi, hamda maktab jamoasiga erta integratsiya bo‘lg‘usi o‘qituvchining o‘z kasbini qadrlashi va o‘zini professionallar safiga daxldor his etishiga zamin yaratadi. Natijada, yoshlar orasida o‘qituvchilik kasbiga ijobiy munosabat shakllanadi.

“4+2” modeli doirasida talabalar oliy ta’lim va maktab tomonidan birirktirilgan o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlaydi. Bu esa tajriba almashinuvi, o‘zaro o‘rganish va innovatsion metodlarni birgalikda sinab ko‘rish imkonini yaratadi.

Talaba bitirganida u nafaqat diplom, balki amaliy tajribaga ham ega bo‘ladi. Bu esa unga kelajakda maktabga tezda moslashish, ishni mustaqil tashkil qilish va o‘z pedagogik uslubini rivojlantirish imkonini beradi.

“4+2” modeli asosida olib borilayotgan maktab amaliyoti, oliy ta’lim muassasalari va umumta’lim maktablari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashda, shuningdek, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtirishda muhim bosqich bo‘lib xizmat qilmoqda.

1. Real pedagogik muhitga moslashuvchanlik ortdi. Talabalar haftaning ikki kuni maktab amaliyotida qatnashgani sababli, ular o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ota-onalar va rahbariyat bilan doimiy aloqada bo‘lib, pedagogik jarayonning barcha bosqichlarida ishtirok etmoqda. Bu esa ularning **real sharoitdagi kasbiy moslashuvini kuchaytirib**, kelajakdagi faoliyatiga tayyorgarlikni sezilarli darajada yaxshiladi.

2. Amaliyot davomida talabalarga tajribali ustoz-o‘qituvchilar (mentorlar) biriktiriladi. Bu yondashuv orqali:

- talaba va tajribali o‘qituvchi o‘rtasida **ijodiy hamkorlik** shakllandi;
- “ustoz-shogird” an’anasi zamonaviy formatda tiklandi.

Shuningdek, bu holat oliy ta’lim muassasalari va umumta’lim maktablari o‘rtasida **organik integratsiyani** kuchaytirgan omillardan biri bo‘ldi.

3. Talabalarning ishtiroki orqali maktablarda o‘tkazilayotgan darslar innovatsion usullar bilan boyidi. Jumladan:

- yangi texnologiyalardan foydalangan holda dars rejalar tuzildi;
- interfaol metodlar, loyihaviy o‘qitish, rolli o‘yinlar, krossvord va savol-javobli yondashuvlar keng qo‘llanildi;
- sinov-salohiyat baholovchi testlar va refleksiya vositalari amaliyotda sinab ko‘rildi.

Natijada, **metodik yondashuvlar zamonaviy pedagogik tendensiyalarga moslashtirildi**, an’anaviy dars modellariga yangilik kiritildi.

4. O‘quvchilarning motivatsiyasi va faolligi ortdi. Amaliyotchi talabalar maktab o‘quvchilari bilan zamonaviy uslubda, tengdoshlariga yaqinroq yondashganligi sababli, darslarda:

- o‘quvchilarning qatnashuv darajasi va faolligi sezilarli oshdi;
- o‘quvchilar darsga ijodiy yondasha boshladi;
- individual yondashuv asosida kamroq faol o‘quvchilarni rag‘batlantirishga e’tibor kuchaydi.

Bu holat maktab darslarini **qiziqarli, interfaol va maqsadga yo‘naltirilgan** jarayonga aylantirdi. Shu orqali darslar faqat bilim berish emas, balki shaxsni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhitga aylandi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida **“4+2” modeli** asosida amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvni joriy etish jarayoni xalqaro ilg‘or tajribalarga suyangan holda shakllanmoqda. Xususan, Finlyandiya, Singapur, Estoniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda pedagogik ta’limda nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uyg‘unlikka alohida e’tibor qaratilgan. Bu davlatlarda o‘qituvchi tayyorlash tizimi faqat nazariy bilim bilan cheklanib qolmay, amaliy faoliyat orqali kasbiy shakllanishga yo‘naltirilgan.

Dunyo miqyosida eng samarali ta’lim tizimlaridan biri hisoblangan Finlyandiyada pedagogik ta’limning markazida amaliyot turadi. Bu yerda:

- talabalarning **30–40% o‘quv yuklamasi** pedagogik amaliyotga ajratilgan;

- amaliyotlar **bosqichma-bosqich chuqurlashtirilgan shaklda** olib boriladi — dastlab maktabni kuzatish, keyin yordamchi o‘qituvchi sifatida ishtirok, so‘ng mustaqil dars o‘tish bosqichlari mavjud;

- **mentorlik tizimi** kuchli rivojlangan bo‘lib, har bir talaba individual tarzda tajribali o‘qituvchi tomonidan doimiy ravishda yo‘naltirib boriladi;

- darsdan tashqari faoliyat, sinf boshqaruvi, ota-onalar bilan muloqot kabi kompetensiyalar amaliyotning ajralmas qismidir.

Finlyandiyada o‘qituvchilik kasbi yuqori maqomga ega bo‘lib, pedagogik amaliyot — bu sinov emas, balki professional shakllanish uchun muhim bosqich sifatida qaraladi.

Singapurda esa pedagogik ta’limdagi amaliyotlar “**Initial Teacher Preparation” (ITP)** dasturi doirasida chuqurlashtirilgan shaklda yo‘lga qo‘yilgan. U yerda:

- har bir pedagogik yo‘nalishdagi talaba **6 oygacha bo‘lgan uzluksiz maktab amaliyotidan o‘tadi**;

- amaliyot vaqtida talabalar **milliy baholash mezonlariga asoslangan portfoliolar** yuritadi;

- mentorlar va akademik rahbarlar ishtirokida muntazam **refleksiya mashg‘ulotlari** o‘tkaziladi;

- dars tahlili (lesson study), videoanaliz va o‘zaro baholash mexanizmlari faol qo‘llaniladi.

Singapurda amaliyot yakuni natijalariga qarab talaba bakalavriat diplomini olish yoki olmasligi belgilanadi. Bu esa talabaning nafaqat bilimga, balki kasbiy sifatlarga ham javobgarligini oshiradi.

O‘zbekiston sharoitida qiyosiy xulosa: “4+2” modeli — yuqorida ko‘rsatilgan ilg‘or davlatlar tajribasiga tayanilgan holda ishlab chiqilgan va o‘zbek ta’lim muhitiga moslashtirilmoqda. Hozirgi kunda:

- talabalar amaliyot davomida sinfdagi pedagogik vaziyatlarni boshqarishni o‘rganmoqda;

- maktablar mentorlik asosida pedagogik jamoaning yangi tarkibiy bo‘g‘iniga ega bo‘lmoqda;

- amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim maktab va universitetni uzviy tizimga aylantirmoqda.

Bu tajriba milliy modelni shakllantirishda nafaqat me’yoriy asos, balki **strategik rejalashtirish va sifatni oshirish vositasi** sifatida ham xizmat qilmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirish — bu uning kasbiy, shaxsiy va intellektual yetukligini ta’minlovchi ustuvor jarayon bo‘lib, uni tizimli va samarali yo‘lga qo‘yish ta’lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Mazkur jarayonning zamonaviy va amaliy samaradorligini oshirishda **“4+2” modeli** katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu modelda nafaqat nazariy bilimlar, balki **amaliy ko‘nikmalar**, **kommunikativ salohiyat** va **raqamli kompetensiyalar uyg‘unligi** ham muhim o‘rin tutadi.

“4+2” modeli asosida ta’limda nazariya va amaliyotni uzviy bog‘liq holda yo‘lga qo‘yish uchun quyidagi tizimli choralarni amalga oshirish zarur:

1. **Universitet–maktab tandemi asosida institutsional hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.** Har bir pedagogik OTM (oliy ta’lim muassasasi) o‘z hududidagi umumta’lim maktablari bilan **rasmiy memorandum** asosida hamkorlik qilishi kerak. Mazkur memorandumlar quyidagilarni qamrab oladi:

- talabalar amaliyotini rejalashtirish va muvofiqlashtirish;

- mentor-o‘qituvchilar tayinlash va ularning vazifalari;

- metodik tajriba almashinuvi mexanizmlari;
- amaliyot faoliyatini baholash mezonlari.

Ushbu yondashuv orqali amaliyot jarayoni shunchaki tashkiliy bosqich bo‘lib qolmasdan, **institutsional manfaatli hamkorlik tizimiga** aylanadi.

2. **“Amaliyot maktablari” tarmog‘ini shakllantirish.** “4+2” modelining samarali ishlashi uchun ilg‘or tajribaga ega maktablar bazasida **“amaliyot maktablari”** tarmog‘ini shakllantirish lozim. Ushbu maktablar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- innovatsion dars uslublarining sinov markazi;
- pedagogik tajriba almashinuvi maydoni;
- mentorlik salohiyatini rivojlantirish makoni.

Bu orqali oliy ta’lim va umumta’lim muassasalari o‘rtasida **barqaror tajriba uzviyligi** vujudga keladi.

3. **Baholash tizimini amaliy ko‘rsatkichlarga yo‘naltirish.** Talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholashda quyidagi mezonlarga ustuvorlik berilishi lozim:

- amaliy faoliyat natijalari (dars tahlili, metodik ishlanmalar);
- mentorlik fikrlari asosida sifatli baholash;
- o‘z-o‘zini baholash (refleksiya) asosidagi individual yondashuv;
- dars yozuvlarining videotasvirlar asosida ekspertiza qilinishi.

Shuningdek, **amaliyot jurnallari va portfoliolar**, **mentor tavsiyalari** va **raqamli baholash shakllari** asosida kompleks yondashuv yo‘lga qo‘yilishi talab etiladi. Bu jarayon talabaning kasbiy mas’uliyatini kuchaytiradi.

4. **Raqamli monitoring va elektron baholash tizimini joriy etish.** Ta’lim jarayonining shaffofligi va nazoratini ta’minlash maqsadida zamonaviy **raqamli monitoring tizimi** yo‘lga qo‘yilishi zarur. Bunday tizim quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- talabalar faoliyati haqidagi barcha ma’lumotlarni yagona raqamli platformaga jamlash;
- mentor va kuratorlar tomonidan elektron baholash;
- amaliyot jarayonini real vaqt rejimida kuzatish;
- “Talaba–mentor–universitet” o‘rtasida raqamli aloqa kanallarini tashkil etish.

Shu orqali har bir talaba uchun **individual raqamli portfel** yaratiladi, bu esa ularning kasbiy rivojlanish trayektoriyasini izchil ko‘rsatib beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirishda **“4+2” modeli** nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirishning zamonaviy yechimi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu model asosida:

- institutsional hamkorlik tizimi yo‘lga qo‘yiladi;
- tajribali “amaliyot maktablari” bazasi shakllanadi;
- baholashda amaliy ko‘nikmalarga ustuvorlik beriladi;
- raqamli monitoring va baholash tizimi samarali joriy etiladi.

Mazkur yondashuv **pedagogik ta’limni real kasbiy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish**, **kasbiy refleksiya va innovatsion dars yondashuvlarini amaliyotda sinab ko‘rish**, hamda **shaxsiylashtirilgan kasbiy rivojlanish**ni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu modelni keng miqyosda joriy etish nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilar salohiyatini oshiradi, balki ta’lim sifatining yuksalishiga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston – xalqimiz uchun munosib hayot, yurtimiz uchun munosib taraqqiyot demakdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.
2. Abduqodirov A. Ta’lim tizimida menejment asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Bahodirova U. Pedagogik amaliyotda metodik xizmat va refleksiya. – Toshkent: Muallim, 2022.
4. Jo‘rayev N. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
5. Jo‘raqulova G. Ta’limda boshqaruvning pedagogik va psixologik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
6. Shlekher A. Global ta’lim muvaffaqiyatlari: PISA tadqiqoti natijalari asosida. – Toshkent: Innovatsion ta’lim, 2020.
7. Yoqubova D. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish. – Samarqand: SamDU nashri, 2021.

DESIGNING EFFECTIVE SUSTAINABLE FINANCE TAXONOMIES

Bobir Sultonmurodov
PhD, Director of Green Banking Department, Uzbek Industrial and Construction Bank JSCB
https://doi.org/10.5281/zenodo.15629222

Abstract. *Sustainable finance taxonomies have emerged as crucial frameworks for directing financial flows towards activities aligned with environmental and social sustainability. These taxonomies serve as classification systems that define criteria for identifying sustainable investments, helping investors, regulators, and issuers assess the degree to which financial assets meet sustainability goals. This article synthesizes insights from the BIS report 'A Taxonomy of Sustainable Finance Taxonomies' and provides a condensed academic-style analysis across six pages. It evaluates the core dimensions of existing taxonomies, identifies key shortcomings, and proposes a set of guiding principles for their improvement. Emphasis is placed on the transition taxonomy model, verification methods, and impact reporting to support climate transition and market transparency. The study concludes with policy actions necessary to enhance credibility, comparability, and efficiency of sustainable finance frameworks worldwide.*

1. Introduction

Sustainable finance taxonomies are emerging as vital tools to address global sustainability challenges. By providing standardized criteria to classify economic activities based on their environmental or social impact, taxonomies enable investors to identify assets aligned with long-term sustainability goals. They help mitigate the risk of greenwashing and ensure that capital is deployed in a manner consistent with policy objectives such as the Paris Agreement and the Sustainable Development Goals (SDGs). A well-designed taxonomy sends a clear signal to the market about which investments genuinely support sustainability outcomes.

To facilitate the transition toward a more sustainable economy, taxonomies in sustainable finance have become indispensable. Despite their growing use, insufficient attention has been paid to the effective design of these taxonomies. This discussion addresses key questions surrounding what a sustainable finance taxonomy is, what role it serves, and which design dimensions matter most. A taxonomy in this context refers to a set of criteria used to assess whether and to what extent a financial asset contributes to specified sustainability objectives. It aims to offer investors and stakeholders a structured way to evaluate assets by identifying and signaling their potential sustainability benefits. These taxonomies are rooted in predefined sustainability goals, which should align with broader policy frameworks such as the Paris Agreement.

A well-structured taxonomy helps steer capital toward investments that fulfill environmental or social targets, including greenhouse gas reductions or improved social outcomes. Governments and private actors alike have recognized this function, as seen in the proliferation of green bonds, social bonds, and ESG-focused funds. By providing clarity and consistency, taxonomies enhance investor confidence and support decision-making processes. Their primary function is to convey reliable non-financial signals that can help market actors distinguish truly sustainable investments from those that merely appear to be so. In doing so, they also act as a

safeguard against "greenwashing"—where claims of sustainability are misleading or unsupported by actual impact.

However, it is important to note that taxonomies are not intended to replace traditional risk management tools. They are not designed to assess broader financial or climate-related risks that may arise from systemic interactions across portfolios or economic sectors. While taxonomies classify individual assets based on specific sustainability criteria, managing exposure to environmental risks requires more comprehensive tools such as stress testing and scenario analysis. These tools account for the interdependencies and financial consequences that taxonomies, by design, are not equipped to capture. Thus, taxonomies serve as one piece of a broader framework needed to align financial systems with sustainability imperatives.

Table 1. Key Elements of a Sustainable Finance Taxonomy


Element	Description
Objective	Defines the high-level sustainability goal such as climate mitigation or biodiversity protection.
Scope	Specifies sectors or types of activities included (green, transition, enabling).
Target	Clarifies whether the taxonomy applies to activities, assets, or entities.
Output	Information provided to stakeholders including granularity, metrics, and verification.

2. Comparative Review of Existing Taxonomies

Three major taxonomies are compared in terms of their objectives, scope, target metrics, and output formats: the European Union (EU) taxonomy, the Chinese taxonomy, and the Climate Bonds Initiative (CBI) taxonomy. Each taxonomy exhibits varying degrees of alignment with the Paris Agreement, granularity of data, and inclusion of transition-related activities. The EU taxonomy is the most comprehensive, embedding high-level objectives and the Do No Significant Harm (DNSH) principle. The Chinese taxonomy has broader environmental categories but lacks transparency on transition strategies. The CBI focuses on climate mitigation but does not employ formal industrial classification systems.

Table 2. Comparative Features of Major Taxonomies

Feature	EU Taxonomy	China Taxonomy	CBI Taxonomy
Objective Alignment	Aligned with net-zero targets	Broad but unclear alignment	Aligned with 2°C target
Transition Activities	Included	Excluded	Covered in a separate framework
Verification	Requires legislative guidance	Voluntary external review	Uses Certification Scheme
Granularity	Binary	Binary	Traffic light and 5 categories



3. Principles for Effective Taxonomy Design

To rectify the inconsistencies and limitations of current taxonomies, five guiding principles are proposed. First, a taxonomy must be clearly aligned with high-level policy objectives such as national net-zero targets or international climate commitments. Second, each taxonomy should focus on a single objective to avoid dilution of its signaling value. Third, outcome-based metrics such as carbon intensity reductions should serve as the primary evaluation tools. Fourth, wherever feasible, metrics should be entity-based to avoid greenwashing at the corporate level. Fifth, taxonomies should exhibit sufficient granularity, allowing for nuanced categorization of sustainability performance.

An effective sustainable finance taxonomy must align closely with high-level policy goals to help investors direct capital toward initiatives that support national development agendas. These objectives might include climate resilience, natural resource conservation, or sustainable urban development. Integrating taxonomies with existing regulatory frameworks enhances consistency and implementation. By using science-based methods, abstract sustainability commitments—such as those outlined in the Paris Agreement or the SDGs—can be converted into concrete, measurable targets like emissions reductions or biodiversity protection. While taxonomies like the EU's and the CBI's incorporate such alignment explicitly, others, such as China's, lack this clarity, potentially reducing their impact.

Taxonomies often encompass multiple environmental objectives ranging from emissions mitigation to ecosystem protection. These goals can be either independent or co-dependent, as seen in the EU taxonomy, which includes the "Do No Significant Harm" (DNSH) principle to prevent

contradictions between goals. However, this co-dependence can introduce complexity and rigidity. For example, excluding fossil-based transitional technologies due to harm to other objectives might hinder progress in developing countries that depend on such industries. China's taxonomy does not formally adopt DNSH, allowing greater flexibility but possibly at the expense of environmental safeguards.

The complexity inherent in multi-objective, co-dependent taxonomies raises challenges for implementation, especially in developing economies with limited institutional capacity. The high cost of compliance and supervision, as well as the difficulty in measuring certain goals like biodiversity, may discourage voluntary participation. A more pragmatic approach for these contexts could be to focus taxonomies on one sustainability objective at a time, leveraging locally applicable technologies and regulations. The "one-label-for-one-objective" model, as seen in the CBI's GHG-focused taxonomy, offers a simpler and potentially more effective pathway for countries at earlier stages of sustainability transition.

4. Transition Taxonomies and Implementation Challenges

Transition taxonomies are crucial for guiding capital toward emissions-intensive sectors that are on a pathway to decarbonization. These taxonomies differ from traditional green taxonomies by including activities that are not yet low-carbon but are expected to reduce emissions over time. A transition taxonomy should define interim targets, such as annual carbon intensity reductions, and establish criteria for monitoring progress. Challenges include defining industry-specific benchmarks, ensuring data availability, and preventing regulatory arbitrage. Taxonomies must be forward-looking and incorporate Scope 1, 2, and 3 greenhouse gas emissions to prevent emissions leakage.

Transition taxonomies play a vital role in defining and standardizing which economic activities contribute meaningfully to climate goals, particularly the reduction of greenhouse gas emissions in line with the Paris Agreement. A granular example of such a taxonomy is the temperature rating system developed by the Climate Disclosure Project (CDP) in collaboration with the World Wide Fund for Nature (WWF). This framework evaluates the "greenness" of investment funds by assessing the emissions reduction targets of the companies within those funds. Since corporate targets differ in scope, units, and timelines, the CDP methodology simplifies them into a single, comparable temperature metric, offering an intuitive benchmark for understanding how corporate ambition aligns with global climate scenarios projected by the IPCC.

The CDP temperature rating process translates company emissions targets into annual reduction rates, which are then mapped against scientific climate scenarios to estimate their corresponding global temperature rise by 2100. Companies with multiple targets have those aggregated into a single corporate temperature score, provided those targets meet quality thresholds. At the fund level, these corporate scores are weighted according to the proportion of financed emissions in the fund portfolio. For firms lacking disclosed targets, a default score of 3.2°C is applied, reflecting a business-as-usual scenario. This approach enables investors to conduct meaningful cross-company and cross-portfolio comparisons, enhancing transparency in climate-related financial risk and supporting more informed capital allocation decisions.

Despite its utility, the effectiveness of the CDP transition taxonomy is constrained by limited corporate disclosure, particularly around Scope 3 emissions, which involve indirect impacts along the value chain. Most companies still do not report ambitious or detailed emissions targets, undermining the precision of fund-level assessments. To improve the integrity of such

taxonomies, it is essential to strengthen reporting standards and require the disclosure of interim targets and comprehensive emissions data. Enhanced transparency would significantly aid in aligning financial portfolios with the Paris temperature goals and in mitigating the systemic risks associated with inadequate climate transition planning.

5. Data, Verification, and Reporting Standards

The credibility of taxonomies depends heavily on data transparency and verification. Effective reporting standards must require disclosure of both use of proceeds and environmental impacts. Reporting should occur annually, be project-specific, and include standardized metrics such as CO2-equivalent emissions avoided. Verification should be conducted by accredited third-party organizations to prevent greenwashing and ensure consistency. Regulatory frameworks modeled after credit rating agencies can enhance oversight and public trust in verification systems.

Table 3. Green Bond Reporting Practices

Practice	Current Status	Recommended Improvement
Use of Proceeds	Reported by most issuers	Granular, project-level detail
Impact Reporting	Voluntary for most standards	Mandatory and standardized metrics
Verification	Non-standardized	Third-party certified, regulator approved

6. Policy Recommendations and Conclusion

To improve the effectiveness of sustainable finance taxonomies, several policy actions are recommended. First, taxonomies should be developed with a single, clearly defined sustainability objective. Second, transition taxonomies should be encouraged to include high-emitting sectors in line with national climate targets. Third, mandatory reporting on environmental impact should be institutionalized for green bond markets. Fourth, certification and verification should be standardized and supervised by regulatory authorities. A globally coordinated effort to harmonize taxonomies will support interoperability and facilitate cross-border sustainable investment. In conclusion, taxonomies are powerful instruments that, if properly designed, can substantially increase the integrity and scale of sustainable finance.

REFERENCES

1. Bank for International Settlements. (2021). *A taxonomy of sustainable finance taxonomies* (BIS Papers No. 118). https://www.bis.org/publ/bppdf/bispap118.htm
2. Climate Bonds Initiative. (2021). *Climate Bonds Taxonomy*. https://www.climatebonds.net/standard/taxonomy
3. Climate Disclosure Project (CDP) & World Wide Fund for Nature (WWF). (2020). *Temperature ratings methodology: Translating corporate climate targets into implied temperature outcomes*. https://www.cdp.net/en/investor/temperature-ratings
4. European Commission. (2020). *Regulation (EU) 2020/852 of the European Parliament and of the Council on the establishment of a framework to facilitate sustainable investment (EU Taxonomy Regulation)*. Official Journal of the European Union. https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32020R0852

5. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). (2018). *Special Report: Global Warming of 1.5°C*. https://www.ipcc.ch/sr15/
6. United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. https://sdgs.un.org/2030agenda
7. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC). (2015). *The Paris Agreement*. https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement/the-paris-agreement

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION ISHLANMALARNI JORIY ETISHNI RAG‘BATLANTIRISH YO‘LLARI

Musayev Ozodjon Shavkat o‘g‘li
TDIU, Biznes boshqaruvi kafedrasi katta o‘qituvchisi PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.15629276

Annotasiya. *Mazkur maqolada kichik biznes subyektlari faoliyatida innovatsion ishlanmalarni joriy etishni rag‘batlantirish yo‘llari va istiqbollari ko‘rib chiqilgan.*

Innovatsiyalar biznes egalariga juda katta foyda keltirish imkoniyati mavjud bo‘lishiga qaramasdan, ko‘pincha kichik biznes subyektlarini o‘z faoliyatiga innovatsion ishlanmalarni joriy etishdan manfaatdorligining pastligi holatlari kuzatiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab olim va mutaxassislar tomonidan mazkur holatning quyidagi sabablariga asosiy urg‘u beriladi.

Innovatsiyalarga sarflanadigan xarajatlar, shu jumladan, tranzaksiya sarflari (Leeman va boshq, 2019), agar ular juda qimmat yoki imkon darajasidan tashqarida deb hisoblansa, joriy qilish uchun jiddiy to‘siq bo‘lishi mumkin. Ilk CFIR bu konstruksiyaga batafsilroq to‘xtalib, innovatsiyani sotib olish, unga obuna bo‘lish yoki foydalanish uchun sarflar, shuningdek, innovatsiya bilan bog‘liq o‘qitish xarajatlari qabul qilish va joriy qilishda muhim omil ekanligini ta’kidlagan. Shunisi e’tiborliki, innovatsiyalar zaminida ilm va tadqiqot ishlari mavjud bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan ularning qiymati oshib boradi. Bu borada AQSh Kuinni tabiiy resurslar kolleji, “Atrof-muhit va jamiyat” kafedrasi professori Jozef Teynterning ta’kidlashicha, “Tobora murakkablashib borayotgan jamiyat sharoitida innovatsiyalar qiymati oshib bormoqda. Hozirgi kunda innovatsiyalarni tadqiq qilish, ishlab chiqish va joriy etish uchun oldingi bir necha o‘n yilliklarga qaraganda ko‘proq odamlar, investitsiyalar va energiya talab qilinadi.

Biroq, moliyaviy to‘siqlarga qaramasdan, kichik biznes o‘z xususiyatiga ko‘ra innovatsion ishlanmalarni joriy etishda yetakchilik qilishi lozim. Chunki, oldingi o‘rinlarda bayon etilganidek, kichik tadbirkorlik tuzilmalari mazmunida innovatsiyalarga intilish kuchliroq namoyon bo‘ladi. Buni, o‘z faoliyatini kichik biznes yoki startap ko‘rinishida boshlagan hamda innovatsion ishlanmalar joriy etish evaziga o‘z kapital qiymatini ahamiyatli darajada o‘stirishga erishgan kompaniyalar misolida ko‘rish mumkin.

Faoliyatini kichik biznes yoki startap ko‘rinishida boshlagan hamda innovatsion ishlanmalar joriy etish evaziga o‘z kapital qiymatini ahamiyatli darajada o‘stirishga erishgan kompaniyalar

Kompaniya	Mamlakat	Sanoat tarmog‘i	Innovatsiya mazmuni	Kompaniya taxminiy qiymati (mlrd. doll.)	Innovatsiyaga sarflangan mablag‘ (mln. doll.)
- transport. Transport eng katta mablag‘ni talab qiladi. Amerika yo‘l va transport quruvchilar assotsiatsiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, har uchinchi ko‘prik ta’mirlanishi yoki almashtirilishi kerak va 7 foizi konstruktiv jihatdan nuqsonli bo‘ladi. .

- suv va elektr. Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligining hisob-kitoblariga ko‘ra, ichimlik suvi va oqava suv tizimlari kelgusi o‘n yil ichida kamida 744 mlrd. dollar qo‘shimcha sarmoya talab qiladi.

- internet. Mutaxassislar keng polosali bo‘shliq haqida ogohlantiradilar. Bunda qishloq va kam ta’minlangan jamoalar keng polosali deb ataladigan ishonchli va tezkor internetni yetkazib berish uchun infratuzilmaning yetishmasligidan aziyat chekadilar.

O‘tgan o‘n yil ichida turli vaqtlarda, eng so‘nggi 2023-yil yanvar oyida ikki partiyali qonunchilar milliy infratuzilma bankini yaratishni qonunchilikka kiritishga harakat qildilar. Bunday bank davlat korporatsiyasi bo‘ladi va infratuzilma loyihalarini arzon, uzoq muddatli moliyalashtirishni ta’minlaydi.

- Germaniya tajribasi. Germaniya 2023-yildagi infratuzilma indeksida birinchi o‘rinni egallash uchun bir pog‘ona yuqoriladi [5]. Uning kreditga layoqatliligi va ishbilarmonlik muhiti uni investorlar uchun qulay sharoit yaratib beradi.

Ilg‘or texnologiyalarning jahon miqyosida raqobatbardosh ishlab chiqaruvchisi sifatida Germaniya barqarorlik va innovatsiyalar bo‘yicha yuqori ballga ega. Hukumatning konstitutsiyaviy bilan bog‘liq qiyinchiliklari xususiy infratuzilma investorlari uchun yetarli imkoniyatlar yaratadi.

Davlatning infratuzilmaga sarflash qobiliyati sezilarli darajada cheklangan bo‘lsa-da, xususiy mablag‘lar infratuzilmani rivojlantirish va mamlakat ehtiyojlarini yangilash darajasiga erishish uchun muhim yo‘nalish bo‘ladi.

- energiyaga o‘tish. Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan hukumat siyosati infratuzilma sohasida markaziy rol o‘ynadi. 2010-yildan boshlab, mamlakat energiyaga o‘tish siyosatini qabul qildi.

- transport. Germaniyaning transport sohasiga infratuzilmani kengaytirish nuqtai nazaridan katta ustuvorlik berildi.

- raqamlashtirish. Energetika va transportdan tashqari raqamlashtirishga ham e’tibor qaratilmoqda. Germaniyada 2025-yilgacha amalga oshirishni rejalashtirgan milliy raqamli strategiya mavjud va yangi yukni ko‘tarish uchun ma’lumotlar markazlarini qurmoqda.

Raqamlashtirish bo‘yicha uchta loyiha bir nechta siyosat sohalarini qamrab oladi va amalga oshirish uchun quyidagilardan iborat bo‘lgan eng yuqori ustuvor vazifa sifatida ko‘riladi:

- optik tolali magistrallar va yuqori unumli mobil aloqa tarmoqlariga asoslangan yuqori tezlikdagi internet va milliy raqamli infratuzilmalarga kirish;

- 5G/6G kabi texnik standartlar, masalan, narsalar interneti kabi yangi ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarni osonlashtiradigan dasturiy ta’minot bilan aniqlangan tarmoqlarni tadqiq qilish;

- kishilarga raqamli ma’muriy xizmatlarga murojaat qilish va internet tranzaksiyalarini oson va xavfsiz amalga oshirish uchun elektron shaxsiy hujjatlarga (smartfonlarda) bog‘langan raqamli identifikatsiyalarni yaratish.

Shuningdek, mintaqa infratuzilmasini rivojlantirish yuzasidan quyidagi mamlakatlar alohida muvaffaqiyatlarga erishganlar:

- Germaniya: Yuqori sifatli avtomobil yo‘llari, tezyurar temir yo‘llar va energiya samaradorligi yuqori binolar bilan mashhur.

- Janubiy Koreya: Raqamli infratuzilma, transport tizimlari va innovatsion shaharsozlik yechimlari bo‘yicha peshqadam.

- Singapur: Samarali port infratuzilmasi, jamoat transporti tizimi va suv resurslarini boshqarish bo‘yicha yetakchi.

Darhaqiqat, mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi juda boy va turli xil. Ushbu tajribani o‘rganish va o‘z sharoitimizga moslashtirish orqali mintaqalarimizning iqtisodiy o‘sishini tezlashtirishimiz, aholining turmush darajasini oshirishimiz mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarning infratuzilma rivojlanishidagi muvaffaqiyatlarini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin (1-jadval):

1-jadval

Rivojlangan mamlakatlarning infratuzilmani rivojlantitish yo‘nalishlari[7]

№	Asosiy yo‘nalishlar	Yo‘nalishlar mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari
1	Strategik rejalashtirish va uzoq muddatli investitsiyalar	- uzoq muddatli milliy strategiyalar: Rivojlangan mamlakatlar infratuzilmani rivojlantirishda uzoq muddatli milliy strategiyalarga ega. Bunday strategiyalar transport, energetika, kommunikatsiya va suv ta’minoti kabi sohalarni qamrab oladi va ularning o‘zaro bog‘liqligini hisobga oladi. - investitsiyalarning barqarorligi: Infratuzilma loyihalariga davlat va xususiy sektor tomonidan barqaror investitsiyalar kiritiladi. Bu loyihalarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta’minlaydi. - mintaqalarning o‘ziga xosligini hisobga olish: Infratuzilma loyihalarini rejalashtirishda mintaqalarning geografik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari hisobga olinadi
2	Innovatsion texnologiyalar va samaradorlik	- yangi texnologiyalarni joriy etish: Rivojlangan mamlakatlar infratuzilma qurilishi va boshqaruvida yangi texnologiyalarni faol qo‘llashadi. Bu qurilish xarajatlarini kamaytirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va ekologik ta’sirni kamaytirish imkonini beradi. - raqamlashtirish: Infratuzilma ob’ektlarini raqamlashtirish orqali ularning ishlashini optimallashtirish, avariyalarni oldini olish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish mumkin. - energiya samaradorligi: Energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihalar qo‘llab-quvvatlanadi. Bu energiya sarfini kamaytirish va ekologik toza energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirish imkonini beradi
3	Xususiy sektor bilan hamkorlik	- davlat-xususiy sheriklik: Infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda bu mexanizmidan keng foydalaniladi. Bu xususiy sektorning moliyaviy va texnik resurslarini jalb qilish, loyihalarni tezroq va samaraliroq amalga oshirish imkonini beradi.

[7] Muallif ishlanmasi.

		- raqobat muhitini yaratish: Infratuzilma loyihalarida xususiy kompaniyalar o‘rtasida raqobat muhitini yaratish orqali sifat va samaradorlikni oshirish mumkin. - tenderlarning shaffofligi: Infratuzilma loyihalari bo‘yicha tenderlar shaffof va odilona o‘tkazilishi ta’minlanadi
4	Inson kapitalini rivojlantirish	- malakali kadrlar tayyorlash: Infratuzilma sohasida malakali kadrlar tayyorlashga katta e’tibor qaratiladi. Bu soha uchun muhandislar, texniklar va boshqa mutaxassislar tayyorlash tizimi takomillashtiriladi. - xodimlarning malakasini oshirish: Infratuzilma sohasida ishlayotgan xodimlarning malakasini muntazam oshirib borish orqali ularning bilim va ko‘nikmalarini zamonaviy talablarga moslashtirish mumkin
5	Ekologik barqarorlik	- ekologik ekspertiza: Infratuzilma loyihalarini amalga oshirishdan oldin ekologik ekspertiza o‘tkaziladi. Bu loyihalarning atrof-muhitga ta’sirini baholash va salbiy oqibatlarni kamaytirish choralarini ko‘rish imkonini beradi. - ekologik toza texnologiyalar: Infratuzilma qurilishida ekologik toza texnologiyalardan foydalaniladi. Bu atrof-muhitga zararni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. - qayta tiklanuvchi energiya manbalari: Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (quyosh, shamol, gidroenergiya) foydalanishni rag‘batlantirish orqali energiya ta’minotining barqarorligini ta’minlash va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish mumkin

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishda O‘zbekiston uchun xulosalarni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- O‘zbekiston mintaqa infratuzilmasini rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan quyidagilarni o‘rganishi mumkin:

- uzoq muddatli milliy strategiyalarni ishlab chiqish va ularga qat’iy rioya qilish.
- innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirishni kengaytirish.
- davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan faol foydalanish.
- malakali kadrlar tayyorlash va xodimlarning malakasini oshirish.
- ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash.

Bundan tashqari, O‘zbekiston o‘zining geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘ziga xos infratuzilma rivojlanish modelini yaratishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Normurodov X.E. Ishlab chiqarish infratuzilmalarida yuzaga keladigan muammolarni sinergetik ta’sirini baholash. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 3/2022, may-iyun (№00059). - 201 b.

2. Voxidova M.X. Maxsus iqtisodiy zonalarning infratuzilmasi. // Iqtisod va moliya, 2021, 1(137). - 31 b.
3. Поздеева О.Г., Иванова О.Ю. Региональная экономика [Текст]ю / О.Г.Поздеева, О.Ю.Иванова. - М.: М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. гос. экон. ун-т. - Екатеринбург: [Изд-во Урал. гос.экон. ун-та]. – с. 49.
4. https://www.cfr.org/backgrounder/state-us-infrastructure
5. https://cms.law/en/int/publication/cms-infrastructure-index-2023/spotlight-on-germany

BOSHQARUV FAOLIYATIDA MADANIYAT USLUBLARIDAN FOYDALANISHNING ROLI

Aknazarova Zebinso Bagdadovna
Namangan davlat-texnika universiteti “Menejment” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.15629326

Annotatsiya. *Maqolada boshqaruv faoliyati tushunchasi yoritilgan, boshqaruv uslubi o‘rganilgan. Boshqaruv faoliyatida madaniyat uslublaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Boshqaruv faoliyatida madaniyat uslublaridan foydalanish bo‘yicha xorijiy adabiyotlar tahlil etilgan. Korxona faoliyatini boshqarishda madaniyat uslublaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar. *boshqaruv faoliyati, boshqaruv uslubi, menejer, madaniyat uslubi, axloqiy va estetik yondashuvlar, korporativ madaniyat.*

Boshqaruv faoliyati tushunchasi mohiyati bir kishining yoki kishilar guruhining boshqa kishilarga maqsadga yo‘naltirilgan harakatlarini uyg‘otish uchun ta’sir ko‘rsatishdan iborat. Boshqarish jarayoni bir tomondan, menejerning maqsadlari, ko‘rsatmalari va qobiliyatlari bilan, boshqa tomondan esa boshqaruv amalga oshirilayotgan vaziyat bilan aniqlanadi. Boshqaruv uslubi deganda menejer xulqining odatiy ko‘rinishi va o‘zini tutish usullari tushuniladi.

Boshqaruv uslubi — bu rahbarning o‘z lavozim vazifalarini qanday tarzda amalga oshirishini ifodalovchi odatiy xatti-harakatlar majmui, ya’ni rahbarlikda o‘zini tutishining uslubiy modeli hisoblanadi. Bu uslub rahbarning shaxsiy fazilatlari, tashkilot madaniyati, jamoaning xususiyatlari, motivatsiya tizimi va mavjud boshqaruv muhitiga bog‘liq holda shakllanadi.

Menejer o‘z faoliyati davomida turli xil usullardan foydalanadi, ular boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish uchun muhim hisoblanadi. Rahbarlik uslubi, belgisi va bo‘ysunuvchilarga nisbatan munosabatiga qarab, barcha rahbarlarni quyidagi uch turga ajratish mumkin: avtokratik rahbar, liberal rahbar, demokratik rahbar. Yuqorida keltirilgan rahbarlik uslublari sof holda uchramaydi. Hayotda har bir rahbarning ish uslubi har xil bo‘ladi, lekin yuqoridagi uch uslubdan biri yaqqolroq sezilib turadi. Turli xil ishlab chiqarish vaziyatlarida har xil xodimga nisbatan rahbarlikning ijobiy tomonlaridan foydalanish zarur. Rahbar haqiqiy ahvolga qarab ish tutishi va bo‘ysunuvchilarning o‘ziga xos shaxsiy xislatlarini hisobga olib muomala qilishi lozim. Boshqaruv faoliyatida rahbar madaniyat uslublaridan foydalanish orqali o‘z faoliyatini yurgizadi. Boshqaruv faoliyatida madaniyat uslublaridan foydalanish deganda — rahbar yoki tashkilot tomonidan mavjud ijtimoiy, milliy va korporativ madaniyat me’yorlari, qadriyatlari, urf-odatlari va xatti-harakat namunalarini boshqaruv jarayonlariga ongli ravishda integratsiya qilish, ya’ni ular asosida boshqaruv uslubini shakllantirish va olib borish tushuniladi. Bu tushuncha rahbarlik uslubi, jamoa bilan munosabatlar, qaror qabul qilish, motivatsiya, nizolarni hal qilish va tashkilot ichidagi kommunikatsiyalarga bevosita ta’sir qiladi.

Insoniyat o‘z rivojlanish jarayonida juda katta boshqaruv tajribasini jamlagan. Bozor sharoitida bu tajriba boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Boshqaruvning bujudga kelishi va rivojlanishi, avvalo boshqaruv madaniyati darajasi va yuksalishi bilan bog‘liqdir. Boshqaruv madaniyati inson madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lish bilan birga bir qator

o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Madaniyatga ega bo‘lish menejer uchun faqat zarur emas, balki shartdir, chunki har bir tashkilotning har bir bo‘linmasi samarali ishlashi uchun uning xodimlari yuksak madaniyatli boshqaruvga ega bo‘lishi kerak.

Boshqaruv madaniyati unsurlarining turli-tumanligi boshqaruv jarayonida turli xil me’yorlarga, jumladan ahloqiy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, estetik me’yorlarga rioya qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Milliy xususiyatlar, ya’ni madaniyat, psixologiya, temperament, an’anlar ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni tushunish va hal qilish, hamda korxonalarning samarali faoliyati uchun zarur tashkiliy sharoitlarni yaratish usuli sifatidagi menejment uslubiga ta’sir ko‘rsatadi.

Boshqaruv faoliyatida madaniyat uslublaridan foydalanish deganda quyidagilar tushuniladi:

1. Madaniyat va boshqaruv integratsiyasi:

Boshqaruv faoliyatida madaniy uslublar deganda, tashkilot yoki rahbar o‘z xatti-harakatlarida milliy yoki korporativ madaniyatning qadriyatlari va me’yorlariga tayangan holda boshqaruv faoliyatini olib borishini anglatadi. Bu, masalan, jamiyatda hukmron bo‘lgan ijtimoiy qadriyatlarni (masalan, kollektivizm, hurmat, an’anaparastlik, ochiqlik) boshqaruv uslubida ifodalash bo‘lishi mumkin.

2. Milliy madaniyatga asoslangan rahbarlik:

Hofstede nazariyasiga ko‘ra, har bir jamiyat o‘ziga xos madaniyat o‘lchovlariga ega (masalan, kuch masofasi, kollektivizm-individualizm, noaniqlikka munosabat va h.k.). Boshqaruvda madaniyat uslublaridan foydalanish degani — rahbar ushbu madaniy xususiyatlarga mos ravishda yetakchilik uslubini tanlaydi.

3. Korporativ madaniyatga moslashuv:

Har bir tashkilot o‘z ichki madaniyatiga ega. Rahbar shu muhitga moslashgan, xodimlar qadriyatlariga mos rahbarlik yondashuvini tanlasa — bu ham madaniyat uslubidan foydalanish hisoblanadi. Masalan, demokratik madaniyatda ochiq muloqot, maslahatlashgan holda qaror qabul qilish afzal bo‘ladi.

4. Axloqiy va estetik yondashuvlar:

Rahbar o‘z boshqaruvida madaniy qadriyatlarga asoslangan axloqiy yondashuvdan (halollik, adolat, mehribonlik, jamoa manfaatini ko‘zlash) foydalanishi — bu ham boshqaruvda madaniy uslubni qo‘llashni anglatadi.

Boshqaruv faoliyatida madaniyat uslublaridan foydalanish — bu rahbarning jamiyat yoki tashkilotda mavjud bo‘lgan madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va axloqiy me’yorlarga mos, ularga tayangan holda o‘z boshqaruv uslubini shakllantirishi va amalga oshirishi jarayonidir. Bu yondashuv boshqaruvning samaradorligini oshiradi, jamoada ishonch va uyg‘unlik muhitini yaratadi.

Boshqaruv faoliyatida madaniyat uslublaridan foydalanish masalalari ko‘plab olimlar o‘z ishlarida tadqiq etishgan.

Geert Hofstede (1980, 2001) – “Culture’s Consequences” va “Cultures and Organizations: Software of the Mind” asarlarida muallif turli milliy madaniyatlar va ularning tashkilotlardagi boshqaruv uslublariga ta’sirini empirik asosda tadqiq etadi. U kuch masofasi, kollektivizm/individualizm, erkaklik/ayollik, noaniqlikka chidamlilik kabi 6ta o‘lchovni taklif qilgan.


Edgar Schein (1985, 2010) – “Organizational Culture and Leadership” kitobida tashkilot madaniyatini uch pog‘onali model asosida tahlil qiladi: artefaktlar, qadriyatlar, asosiy taxminlar. Schein madaniyat rahbarlik uslubini shakllantiruvchi eng muhim omil ekanini ta’kidlaydi.

Fons Trompenaars va Charles Hampden-Turner (1997) – “Riding the Waves of Culture” asarida xalqaro menejmentda madaniyatga asoslangan rahbarlik strategiyalarini ishlab chiqadi. Ular ham 7ta madaniy o‘lchov (masalan, universallik-partikulyarlik, neytral-emotsional) orqali menejerlar xulqini tahlil qiladi.

Daniel Goleman (1995) – “Emotional Intelligence” asarida rahbarlikda madaniyatga bog‘liq emotsional intellekt va ijtimoiy kompetensiyalar muhimligini ko‘rsatadi. Bu zamonaviy boshqaruvda rahbar shaxsining madaniy jihatdan sezgir bo‘lishini asoslaydi.

Robert House (et al.) – GLOBE (Global Leadership and Organizational Behavior Effectiveness) loyihasi 62 ta mamlakatda rahbarlik va madaniyat munosabatlarini empirik o‘rganib, 9 ta madaniy atribut va 6 ta rahbarlik uslubini taklif etgan.

Madaniyat uslublarining boshqaruvga ta’siri quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:



Qaror qabul qilish jarayondagi yondashuvlar deganda, inson yoki tashkilot qanday qilib muammo yechimini topishi yoki muayyan tanlovni amalga oshirishi uchun qo‘llaydigan usul, tamoyil yoki fikrlash yo‘llari tushuniladi. Bu yondashuvlar qaror qanday shakllanad, qanday omillar hisobga olinadi va qanday qilib amalga oshiriladi degan savollarga javob beradi.

Kompaniya yoki tashkilot ichidagi kommunikatsiya madaniyati bu tashkilot ichidagi xodimlar o‘rasida axborot almashish, fikr bildirish, muammolarni muhokama qilish va qarorlar haqida xabardor bo‘lish uslubi, qadriyatlari va odatlar tizimidir. Bu madaniyat nima uchun muhim: ishonchli muhitni yaratadi, xodimlar o‘z fikrini erkin bildiradi, ish samaradorligini oshiradi, noto‘g‘ri tushunishlar va nizolar oldi olinadi hamda jamoada sog‘lom psixologik muhit shakllanadi.

Boshqaruv faoliyatida madaniyat uslublaridan foydalanish rahbar etikasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u ishbilarmonlik aloqasi asoslari, xodimlarni rag‘batlantirish va xizmat ko‘rsatish munosabatlari hisoblanadi.

Rahbarning rasmiy etikasi birinchi navbatda, samimiy xulq-atvor muhimligini ta’kidlash kerak. Jamoani boshqarayotgan odam uchun yolg‘on gapirish salbiy natijalarga sabab bo‘ladi. Ba’zilar, muayyan vaziyatlarda bu foydali bo‘lishi mumkinligiga ishonishadi, lekin aslida uzoq muddatli oqibatlar har doim undan ustun turadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, har qanday odam baland ovozda gapirmasa ham, ongsiz ravishda o‘zini aldanayotganini his qiladi. Biroq, bu xotirada qoladi

va xo‘jayin aytgan so‘zlarning yolg‘onligining aniq dalillari paydo bo‘lganda, odam nihoyat menejerga ishonchini yo‘qotadi.

Rahbarning ishbilarmonlik muloqoti etikasining dolzarbligi nafaqat ish jarayonining barqarorligi va xodimlarning o‘z vazifalarini bajarishdan manfaatdorligi insonning axloqiga bog‘liq. Ko‘p jihatdan, boshqaruv xodimlarining uslubi va tashqi ko‘rinishi umuman korxona haqidagi taassurotni aniqlaydi. Har bir rahbar maxsus tayyorgarlikdan o‘tishi, psixik jarayonlar haqida tasavvurga ega bo‘lishi, bunday bilimlarni amalda qo‘llashi zarur. Boshqaruv xodimlarining vazifasi nizolarni tezda hal qilish, har qanday qiyin vaziyatdan imkon qadar samarali va kam yo‘qotish bilan chiqishdir. Rahbar odamlarni boshqara olishi kerak. Boshqaruv xodimlarining axloqiy asosi - bu shaxsning axloqiy asoslari, mas’uliyat darajasi, kasbiy qismini qo‘llab-quvvatlash qobiliyati. Ko‘p jihatdan, rahbar va bo‘ysunuvchi o‘rtasidagi munosabatlar etikasi birinchi bo‘lib o‘zini ma’lum bir professional guruh bilan bog‘lash qobiliyati bilan belgilanadi. Boshqaruv jamoasiga xos bo‘lgan odob-axloq korxona oldida turgan vazifalar va maqsadlarni tushunish orqali namoyon bo‘ladi. Rahbar harakat vositalarini tushunishi kerak. Uning vazifasi korxona ichidagi xulq-atvor va munosabatlar madaniyatini kuzatishdan iborat. Uning shaxsiy fazilatlari olingan lavozim bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Rahbarning etikasi bu shaxsning yuksak nufuzini saqlab qolish uchun zarur hisoblanadi. Rahbar o‘z faoliyati davomida hurmatga sazovor bo‘lish uchun inson muhim fazilatlarga ega bo‘lishi kerak. Bularga axloqiy me’yorlar orqali ifodalangan muloqot madaniyati kiradi. Hozirgi vaqtda asosiy me’yorlar hamkasblar bilan ishonchli munosabatlarni shakllantirish qobiliyati, shuningdek, barcha bo‘ysunuvchilarga xushmuomalalik bilan murojaat qilishdir. Rahbarning vazifasi - aniq bo‘lishi, aytilgan va qilingan hamma narsa uchun javobgar bo‘lishi, diqqatli, tinglovchilarga ochiq bo‘lishi kerak. Ishchilar, barcha hamkasblar bilan demokratik munosabat hozirda standartlardan biri hisoblanadi.

Xulosa.

Boshqaruv faoliyatida madaniyat uslublaridan foydalanish bir qancha muhim afzalliklarni beradi. Bu yondashuv nafaqat tashkilot ichidagi muhitni sog‘lomlashtiradi, balki boshqaruvning samaradorligi, xodimlarning motivatsiyasi va tashkilotning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Boshqaruv faoliyatida madaniyat uslublaridan foydalanish quyidagi afzalliklarni beradi:

- ✓ Jamoa ichida o‘zaro ishonch va barqarorlikni mustahkamlash;
- ✓ Motivatsiya va sodiqlikni oshirish;
- ✓ Konfliktlarning oldini olish va yumshoq hal etilishi;
- ✓ Samarali kommunikatsiya va muloqot muhitini yaratish;
- ✓ Korporativ madaniyatni shakllantirish va tashkilotni “brendlashtirish”
- ✓ Mahalliy va global muhitga moslashuvchanlik;
- ✓ Uzoq muddatli barqarorlik va rivojlanishga asos yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Inson resurslarini boshqarish” o‘quv qo‘llanma M.M.Azlarova, Toshkent-Iqtisodiyot -2019.
2. Qosimova D.S., Nazarova G.G., Salixova N.M., Ismailova N.S.Inson resurslarini boshqarish: Darslik. - T.: TDIU, 2011.-213 b.
3. Dissercat.com

AHOLI KAMBAG‘ALLIGINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Djalilova Shaxlo Ismoiljon kizi
Andijon davlat texnika instituti" “Iqtisodiyot” kafedrasi tayanch doktoranti
Andijon viloyati, Andijon shahri, Mashhur ko‘chasi 8-uy
https://doi.org/10.5281/zenodo.15629698

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aholi kambag‘alligini tadqiq etishning nazariy asoslari keng qamrovli tahlil qilinadi. Aholi kambag‘alligi muammosi zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Maqolada aholi daromadlaridagi notekislik, ta'lim va sog‘liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyatlari, shuningdek, kambag‘allikning ijtimoiy ta'sirlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bu masalani hal etishda samarali strategiyalarni ishlab chiqishda yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *aholi kambag‘alligi, iqtisodiy tahlil, ijtimoiy muammolar, daromad notekisligi, ta'lim va sog‘liqni saqlash, kambag‘allik ta'siri, strategiyalar*

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations for studying population poverty. The issue of poverty is deeply intertwined with the social, economic, and political processes of contemporary society. The article examines income inequality among populations, accessibility to education and healthcare services, as well as the social impacts of poverty. The findings of the research will aid in the development of effective strategies to address this critical issue.*

Key words: *population poverty, economic analysis, social issues, income inequality, education and healthcare, impacts of poverty, strategies*

Аннотация. *В данной статье представлен всесторонний анализ теоретических основ исследования бедности населения. Проблема бедности тесно связана с социальными, экономическими и политическими процессами современного общества. В статье рассматриваются неравенство доходов среди населения, доступность образования и медицинских услуг, а также социальные последствия бедности. Результаты исследования помогут в разработке эффективных стратегий для решения этой актуальной проблемы.*

Ключевые слова: *бедность населения, экономический анализ, социальные проблемы, неравенство доходов, образование и здравоохранение, влияние бедности, стратегии*

Kirish

Milliy iqtisodiy tizimni rivojlantirishda, uning barqaror darajasini ta’minlash uchun faol iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish iqtisodiyotning asosiy ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiyotining barqaror rivojlanlantiruvchi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar: yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning real o‘sishi, inflyatsiya, valyuta kursi, ishsizlik darajasi, to‘lov balansi kabilarning ijobiy darajada bo‘lishiga bevosita bog‘liqdir. Yuqorida qayd etilgan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblangan ishsizlik darajasi kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi omillardan deb sanalmoqda. Kambag‘allik - oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpana kabi asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli pul yo‘qligi. Biroq, kambag‘allik pulning yetishmasligidan ko‘ra ko‘proq narsani anglatadi. Jahon banki kambag‘allikni shunday ta’riflaydi:

“Kambag‘allik– ochlik. Kambag‘allik - bu boshpana yetishmasligi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015-2030-yillar uchun mo‘ljallangan “Barqaror rivojlanish maqsadlari” dasturida 17 ta global maqsadning birinchisi etib “Mamlakatlarda aholining kam ta’minlanganlik darajasini pasaytirish” maqsadini belgiladi. Shuningdek mazkur hujjatda 8-maqsad sifatida “Samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan ta’minlash asosida barqaror va keng qamrovli iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashish maqsadi belgilandi. Qashshoqlikka barham berish, sayyoramizni himoya qilish va hamma odamlarning tinchlik va farovonlikdan bahramand bo‘lishini ta’minlash majburiyati bilan 2030 kun tartibi yana Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan va’daga ishora qildi. Shunga qaramay, hozirgi voqelik shuni ko‘rsatadiki, biz hammani boqish uchun yetarli mahsulot ishlab chiqaradigan dunyoda 811 million odam yetarli oziq-ovqatga ega emas va 44 million kishi ocharchilikka duchor bo‘lish xavfi ostida (1). 2 milliard odamgina bu xavflardan hanuzgacha xavfsiz yashaydi. ichimlik suvi va xavfsiz boshqariladigan sanitariya sharoitlarisiz 3,6 mlrd. (manba: JSST va UNICEF). 1,3 milliard odam hali ham ko‘p qirrali qashshoqlikda yashaydi (manba: BMTTD), ularning deyarli yarmi bolalar va yoshlardir. Mutaxassislar fikricha, kambag‘allik tushunchasiga yagona ta’rif mavjud emas. Ba’zilar insonning birlamchi ehtiyojlarini qondirish imkoniyati yo‘qligini kambag‘allik deb tushunsa, boshqalar tanlov erkinligining yetarlicha emasligini yoki kishining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ishtirokiga putur yetkazuvchi ijtimoiy, ta’lim va sog‘liqni-saqlash sohasidagi to‘siqlarning doimiy doirasini tushunishadi.

Adabiyotlar tahlili

Kambag‘allikka turli davlatlarda har xil izohlar, turlicha fikrlar bildiriladi. Umuman, jahon tajribasida biror shaxs yoki ijtimoiy guruhning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan minimal ehtiyojlar, mehnatga layoqatlilik hamda avlodini davom ettirishga imkoniyati yetarli bo‘lmagan kabi iqtisodiy holatlarni tavsiflovchi tushunchaga kambag‘allik deyiladi. Buni aniqlashda bir nechta chegara bo‘lib, aholining munosib turmush kechirishi uchun ma’lum bir me’yor belgilanadi. Agar kishining daromad (yoki xarajat)lari belgilangan me’yordan past bo‘lsa, u kambag‘al hisoblanadi. Kambag‘allik chegarasi kunlik eng kam miqdordagi oziq-ovqat va zaruriy mahsulotlarni sotib olish uchun sarflangan xarajatlar yoki olingan daromadlar hamda oilaning ma’lum bir guruhdagi tovar va xizmatlardan foydalana olish imkoniyatini baholash orqali belgilanadi. Masalan, Davlat statistika qo‘mitasining kambag‘allikni o‘lchash uslubiyotiga binoan, O‘zbekistonda kunlik 2100 kkal.dan kam iste’mol (xarajat) qilgan kishilar kambag‘al deyiladi.

“2019 yil yakunida O‘zbekistonda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 1723 AQSh dollarini tashkil etishi, Jahon banki klassifikatsiyasi bo‘yicha respublikani o‘rtadan past daromadli mamlakatlar guruhiga kirishiga asos bo‘ldi”, deya yozadi Nurbek Yo‘ldoshev. Moliya vazirligining 2020 yil aprel-may oylari bo‘yicha e’lon qilingan hisobotida ish haqi olib ishlayotgan va jismoniy shaxslar daromad solig‘ini to‘layotgan fuqarolarning qariyb 1 million 772 ming nafari (42,6 foiz) 1 million so‘mgacha, 1 million 66 ming nafari 1 million so‘mdan 2 million so‘mgacha oylik olishi keltirilgan. Iqtisodiy taraqqiyot, texnologik vositalar va moliyaviy resurslar misli ko‘rilmagan darajada rivojlangan dunyoda millionlab odamlarning o‘ta qashshoqlikda yashayotgani ma’naviy nuqsondir. Qashshoqlik nafaqat iqtisodiy muammo, balki ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, u ham daromadning, ham munosib yashash uchun asosiy imkoniyatlarning yetishmasligini o‘z ichiga oladi. Qashshoqlikda yashovchi shaxslar o‘z huquqlarini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi va qashshoqlikni davom ettiradigan ko‘plab o‘zaro bog‘liq va o‘zaro mustahkamlovchi mahrumliklarni boshdan kechiradilar, jumladan: -xavfli ish sharoitlari; -xavfli

uy-joy; -to‘yimli oziq-ovqat yetishmasligi; -adolatdan foydalanishning tengsizligi; -siyosiy kuchning y etishmasligi; -tibbiy xizmatdan foydalanish cheklanganligi; Imkoniyatlarning tengsizligi, shu jumladan asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati va gender tengsizligi saqlanib qolmoqda, shu bilan birga daromadlar tengsizligi keskin oshib bormoqda va har yili boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi tafovut yanada kengayib bormoqda. O‘tgan yili millionlab odamlar ishchilar huquqlari va ish sifatining buzilishi bilan boshqa kunga yetish uchun kurashayotgan bir paytda, korporativ hokimiyat va milliarderlar sinfining boyligi misli ko‘rilmagan o‘sishni qayd etdi(3). Qashshoqlik va tengsizlik muqarrar tushuncha deb hisoblanmaydi. Ular shunchaki jamiyatimizdagi katta ahamiyatga ega bo‘lmagan va kamroq darajada e’tibor qaratilgan qaror va fiklarning istalmagan natijasiga aylangan jamiyatimiz a’zolaridir. Qashshoqlikning jim va doimiy zo‘ravonligi hisoblanmish- ijtimoiy ajratish, tizimli kamsitish va huquqlardan o‘z-o‘zini qisman mahrum qilish, yetarlicha ta’limga ega bo‘lmaslik kabi illatlar - o‘ta qashshoqlik tuzog‘iga tushib qolgan odamlarni undan qutulishini qiyinlashtirmoqda. COVID-19 pandemiyasi ushbu dinamik, ijtimoiy himoya tizimidagi kamchiliklar va muvaffaqiyatsizliklarni, shuningdek, tizimli tengsizliklarni va qashshoqlikni chuqurlashtiradigan va davom ettiruvchi kamsitishning turli shakllarini kuchayishiga turtki bo‘ldi. Bunga qo‘shimcha ravishda, favqulodda iqlim sharoiti, irrigatsion muammolar kabilar qashshoqlikda yashovchi odamlarga nisbatan yangi qiyinchiliklarni tashkil etadi, atrof-muhitning degradatsiyasining tez-tez sodir bo‘lishi ortiqcha yuk bo‘lib, ularning asosiy yashash vositalaridan hisoblangan qishloq xo‘jaligini keskinlashuviga olib kelmoqda. "Atrof-muhit, ekotizim va biologik xilma-xillikning buzilishi qashshoqlikda yashovchi oilalarni boshqalardan ko‘ra ko‘proq tashvishlantirmoqda." [3]. Bu yil Butunjahon o‘ta qashshoqlikka qarshi kurash kunining 35 yilligi va Xalqaro qashshoqlikka barham berish kunining 30 yilligi nishonlanadi. Ushbu kun qashshoqlikdan aziyat chekayotgan millionlab odamlarni va ularning kundalik jasoratini sharaflaydi va qashshoqlikni yo‘q qilish va kamsitishning barcha shakllariga qarshi kurashish uchun muhim global birdamlik va umumiy mas’uliyatni e’tirof etadi. 2023-yilda SDGlarning o‘rta muddatli ko‘rib chiqilishi hukumatlarga sayyoramizda va eng kambag‘allarda sodir bo‘layotgan zo‘ravonlikni tugatish, qashshoqlik va zulmni davom ettiruvchi hamda taraqqiyotga to‘sqinlik qiluvchi tizimli tengsizliklar va kamsitishlarni tuzatish imkoniyatini taqdim etadi[4].

Kambag‘allik resurslarning yetishmasligi va yashashga qodir emasligi bilan bog‘liq tushunchadir. Kambag‘allik keng ko‘lamli omillarni o‘z ichiga oladi, shu jumladan yetarli darajada oziq-ovqat va uy-joy iste’moli, yomon sog‘liq va muammolar, sog‘liqni saqlash, mehnat bozorida xizmatlarini taklif qila olmaslik va siyosiy qobiliyatsizlik[5].

Muhokama va natijalar

Hozirda aholining yordamga muhtoj qatlamiga transfert to‘lovlarni ya’ni ijtimoiy nafaqa va pensiyalarni ko‘paytirish orqali ularga amaliy yordam ko‘rsatish orqali qashshoqlikni kamaytirishga erishish mumkin deb hisoblanmoqda. Bu esa o‘z navbatida bir tomonlama yechim bo‘lib, ushbu muammoni to‘liq hal qila olmaydi. Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 27-fevral kuni tadbirkorlik orqali kambag‘allikni kamaytirish chora-tadbirlariga bag‘ishlangan video selektor yig‘ilishi o‘tkazildi. “Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, 12-15 % yoki 45 million kishi kambag‘al. Demak, ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so‘mdan oshmaydi.

Yoki oilada mashina ham, uy hayvoni ham bo‘lishi mumkin emas, lekin agar odam og‘ir kasal bo‘lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolashga ketadi. Bunday oilani o‘zini-o‘zi ta’minlaydigan oila deb atash mumkinmi? “Prezident sifatida meni xalqimiz hayotida nimalar bo‘lyapti, oziq-ovqat, davolanish, ta’limtarbiya, farzandlari uchun kiyim-kechak kabi savollar har kuni qiynayapti. Yig‘ilishda davlat rahbari yana qo‘shimcha qildi: “Kambag‘allikning qisqarishi oylik yoki pensiya nafaqalari, ommaviy kreditlar ko‘payishini anglatmaydi. Buning uchun, birinchi navbatda, kasb-hunarga o‘rgatish, moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik, infratuzilma, bolalarga ta’lim-tarbiya berish, sifatli davolash, manzilli imtiyozlar berishni yo‘lga qo‘yish zarur, - dedi Prezidentimiz[6]. Kambag‘allikni bartaraf etish muammosi barcha olib borilayotgan islohotlarga samarali qo‘shilish yo‘qligi sababli, ijtimoiy yordam tizimi hali ham yetuk emasligi tufayli hal qilina olmayapti. Qishloqning yordamini misol qilib olsak, qishloqda kadrlar sifati notekis, kambag‘allarga yordam berish vositalari esa yagona. Kambag‘allarga yordam berish faqat kambag‘allarning moddiy darajasida bo‘lib, ba’zi bo‘limlar fuqarolik yordamiga ko‘ra ishni bajaradi. Bu yordam ko‘proq kambag‘al qishloq va kambag‘allar shaklida bo‘ladi. Ba’zi kadrlar boshlang‘ich tashkilot ishini yaxshi bilmaydi, o‘z sifati past, qobiliyati yetarli emas. Ular qishloq kadrlariga qashshoqlikni bartaraf etish bo‘yicha ish g‘oyalarini oydinlashtirish va qashshoqlikni bartaraf etish qoidalarini shakllantirishda yordam berishda yetarlicha tashabbus ko‘rsata olmayapti.

Qishloq hududlari aholisining daromadini oshirish bo‘yicha bir qator chora tadbirlar jahonning barcha mamlakatlarida amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida ham aholi daromadini oshirish va kambag‘allik darajasini qisqartirish bo‘yicha qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda Yuqoridagi kamchiliklarni kamaytirish maqsadida mamlakat o‘z oldiga 2026 yilga qadar kambag‘allik darajasini 2 barobarga kamaytirish va mamlakat eksport hajmini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish hamda xususiy sektorning eksportdagi hajmini 60 foizga yetkazishni maqsad qilib qo‘ydi[7].

O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allik darajasini kamaytish maqsadida juda katta salmog‘li ishlar qilindi. Xususan “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” kabi ro‘yxatlar shakillantirilib, qishloq hududlari aholisining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga subsidiyalar va kam foizli kreditlar berilmoqda. Bu kabi sa’y-harakatlar zamirida mamlakatda kambag‘allik darajasini qisqartirib qishloq hududlari aholisini xususiy hamda yakka tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullantirish orqali aholi daromadlarini oshirish ko‘zda tutilgan.

Xulosa

O‘zbekistonning qishloq hududlari aholisi daromadini oshirish orqali, kambag„allik darajasini qisqartirishga oid amaliy takliflar ishlab chiqish hisoblanadi. Shu maqsadda sohaga oid bo‘lgan boshqa tadqiqotchilarning jamoatchilikdan olgan so„rovnomasidan ham foydalanilgan. Natijaga ko‘ra qishloq hududlarida aholi bandligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etdi. Shu maqsadda chekka-chekka hududlarga ya’ni urbanizatsiyalashmagan hududlarga infratuzilmalarni yetkazib borish, u yerda ham ishlab chiqarish obyektlarini ya’ni zavod va korxonalarni barpo etish lozimligi o‘z aksini topdi. Bunda qishloq hududlarining aholi daromadi tarkibida mehnat faoliyatidan olinadigan daromadning ulushini oshirish zarurligi ko‘rsatildi. Shuningdek qishloq hududlari aholisiga o‘z tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun subsidiyalar va foizi past bo‘lgan kreditlarni berishni joriy qilish hamda ularga o‘z biznesini va tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun mutaxasislar tomonidan yetarlicha ko‘rsatmalar berilishi zarurligini o‘rganildi. “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini

oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi 11.08.2020 yil PQ-4804sonli Qarori aynan mana shu masalada qabul qilindi. Qarordan asosiy maqsad — kambag‘al va ishsizlarni kasbhunarga va tadbirkorlikka o‘qitishning yangi tizimini joriy qilish, ularni kasb-hunarga o‘qitishda xususiy sektor bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, kasb-hunarga va tadbirkorlikka o‘qitish jarayonlarini tashkil etish, ehtiyojmand aholi va nogironlar ish bilan bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha choralarni amalga oshirish hisoblanadi. Mazkur qarorda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi mamlakatimizda ishsizlikni oldini olish, kambag‘allikni qisqartirishda ahamiyati katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.https://www.worldbank.org/en/topic/poverty
2. https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/6754Technical
3. 3.Kristian, ijtimoiy va ekologik adolat aktivisti, DRC
4. 4.United Nations.Department of Economic and Social Affairs. Sustainable Development
5. Shahbaz, M., Shamim, S. A., & Aamir, N. (2010). Macroeconomic environment and financial sector's performance: econometric evidence from three traditional approaches. The IUP Journal of Financial Economics, 1, 103-123
6. 6.Xalqimizga baliq emas, qarmoq berishimiz kerak - Prezident : https://kun.uz/news.
7. Sh. Mirziyoyev:“Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi”

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING IJTIMOIY LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH USULLARI

Xasanov Jahongir Botir o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.15637144

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNT) ijtimoiy loyihalarini moliyalashtirish usullari tahlil qilingan. Muallif an’anaviy va zamonaviy moliyalashtirish manbalarini o‘rganib, ularning samaradorligi va amaliyotda qo‘llanish imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi. Xususan, grantlar, homiylik, kraudfanding va ijtimoiy tadbirkorlik kabi mexanizmlar muhokama qilingan. Shuningdek, moliyalashtirish jarayonidagi asosiy muammolar - qonunchilikdagi kamchiliklar, moliyaviy xabardorlikning yetishmasligi va tashkilotlar shaffofligi kabi omillar yoritilgan. Maqolada NNTlarning barqaror moliyaviy ta’minotini ta’minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar berilgan.*

Abstract. *This article analyzes the financing methods of social projects implemented by non-governmental non-profit organizations (NGOs). The author examines both traditional and modern sources of funding, assessing their effectiveness and applicability in practice. In particular, mechanisms such as grants, sponsorship, crowdfunding, and social entrepreneurship are discussed. Additionally, the article highlights key challenges in the financing process, including gaps in legislation, lack of financial literacy, and issues related to organizational transparency. The author also provides proposals and recommendations aimed at ensuring the sustainable financial support of NGOs.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы методы финансирования социальных проектов, реализуемых негосударственными некоммерческими организациями (ННО). Автор изучает как традиционные, так и современные источники финансирования, оценивая их эффективность и применимость на практике. В частности, рассматриваются такие механизмы, как гранты, спонсорство, краудфандинг и социальное предпринимательство. Также освещаются основные проблемы, возникающие в процессе финансирования, включая пробелы в законодательстве, недостаточную финансовую грамотность и вопросы прозрачности организаций. В статье представлены предложения и рекомендации, направленные на обеспечение устойчивого финансового обеспечения ННО.*

Tayanch so‘zlar: *nodavlat notijorat tashkiloti, ijtimoiy loyiha, moliyalashtirish, grant, kraudfanding, ijtimoiy tadbirkorlik.*

Key words: *non-governmental non-profit organization, social project, financing, grant, crowdfunding, social entrepreneurship.*

Ключевые слова: *негосударственная некоммерческая организация, социальный проект, финансирование, грант, краудфандинг, социальное предпринимательство.*

Bugungi kunda jahon miqyosida fuqarolik jamiyatini shakllantirish va mustahkamlash jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni ta’minlovchi vosita sifatida faoliyat yuritib, aholining turli ijtimoiy

qatlamlari manfaatlarini ifoda etuvchi, jamoatchilik tashabbuslarini amalga oshiruvchi ta’sirli tuzilmalar hisoblanadi.

NNTlar ta’lim, sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, nogironlar huquqlarini himoya qilish, gender tengligi, yoshlar va xotin-qizlar faolligini oshirish kabi ko‘plab ijtimoiy sohalarda faoliyat olib borishadi. Ularning amalga oshiradigan loyihalari jamiyatda muhim ijtimoiy o‘zgarishlarga turtki beradi, aholining faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim o‘rin tutadi.

Biroq, ushbu tashkilotlarning barqaror va samarali faoliyatini ta’minlashda moliyaviy ta’minlanish masalasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ko‘pgina hollarda NNTlar ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega emaslar. Bu esa ularning tashabbuslarini cheklaydi, faoliyat ko‘lamini qisqartiradi va ta’sirchanligini kamaytiradi.

Moliyalashtirish manbalari va usullari NNTlar uchun nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki ularning mustaqilligi, shaffofligi va keng jamoatchilikka ta’sirini ta’minlashda ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, keyingi yillarda moliyalashtirishning zamonaviy usullari, xususan, kraudfanding, ijtimoiy tadbirkorlik, davlat - NNT sherikligi kabi yondashuvlar NNTlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Respublikamizda NNTning mol-mulkini shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

kirish va a’zolik badallari, agar ular ustavda nazarda tutilgan bo‘lsa;

muassislardan, qatnashchilardan (a’zolardan) bir marotaba va muntazam ravishda keladigan tushumlar;

ixtiyoriy mulkiy badallar va ehsonlar;

tadbirkorlik faoliyatidan olingan, faqat ustav maqsadlari uchun ishlatiladigan daromadlar (foyda);

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar[8].

Shu tariqa, O‘zbekiston Respublikasida NNTning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun ularning mol-mulkini shakllantirish manbalari keng ko‘lamda belgilangan. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, NNTlar o‘z faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun a’zolik badallari, muassislardan tushumlar, ehsonlar, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar va boshqa manbalardan foydalanishlari mumkin. Bu, o‘z navbatida, ularning ijtimoiy tashabbuslarni amalga oshirishda moliyaviy mustaqillikka erishishlari uchun huquqiy va iqtisodiy asos yaratadi. Endi esa, aynan ushbu manbalar doirasida ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishning turli usullarini tahlil qilish orqali NNTlarning amaliyotda qanday imkoniyatlardan foydalanayotganini ko‘rib chiqamiz.

Birinchidan, NNTlarni moliyalashtirishning an’anaviy usullari.

1. Grantlar va subsidiyalar

Grantlar - nodavlat notijorat tashkilotlariga muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun davlat, xalqaro tashkilotlar yoki xususiy donorlar tomonidan berilgan bepul moliyaviy ko‘mak shaklidagi mablag‘lardir. Grantlar ko‘pincha konkurs asosida beriladi va loyihaning maqsadli yo‘naltirilganligi, aniq natijaga erishish strategiyasi, shaffofligi kabi mezonlarga qarab baholanadi. Grantlar asosan davlat yoki boshqa tashkilotlar tomonidan ularning ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarini amalga oshirish uchun ajratiladi.

[8] Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 1999. 29-моддаси

Shuningdek, subsidiya asosan davlat tomonidan ajratiladigan moliyaviy ko‘mak hisoblanadi. Davlat subsidiyasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash uchun beriladigan va maxsus loyihalar bilan bog‘liq bo‘lmagan moliyaviy yoki boshqa moddiy ko‘makdir[9].

Afzal jihatlari: maqsadli yo‘naltirilgan bo‘ladi, katta hajmdagi mablag‘ni jalb qilish imkoni, loyihani amalga oshirish uchun mustahkam moliyaviy poydevor yaratadi.

Salbiy taraflari: grantlarni olish jarayoni murakkab va raqobatli, hisobot berish talabi katta mas’uliyat yuklaydi, grant muddati cheklangan bo‘lib, loyihaning barqarorligiga ta’sir qilishi mumkin.

2. Homiylik va xayriyalar

Mahalliy tadbirkorlar va jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy yordam NNTlar uchun muhim daromad manbasi hisoblanadi. Bu shakl nodavlat tashkilotlarning mustaqilligini saqlash imkonini beradi, biroq uning uzluksizligi kafolatlanmagan.

Afzal jihatlari: tashkilot mustaqilligini ta’minlash imkonini beradi, homiylar bilan uzoq muddatli hamkorlik o‘rnatish mumkin.

Salbiy taraflari: homiylar manfaatiga bog‘liq bo‘lib qolish ehtimoli bor, mablag‘ uzluksiz kelib turmasligi mumkin, hayriyalarga jamoatchilik ishonchini oshirish zarur.

3. A’zolik badallari va ixtiyoriy to‘lovlar

Ayrim NNTlar o‘z a’zolaridan muntazam ravishda badallar yig‘ishadi. Bu jamiyatning faolligini oshirish bilan birga, tashkilotning moliyaviy mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi .

Afzal jihatlari: daromadning ichki manbai hisoblanadi, a’zolarni tashkilot faolligiga jalb etadi.

Salbiy taraflari: mablag‘ miqdori cheklangan, a’zolar soni yetarli bo‘lmasa, barqarorlik ta’minlanmaydi.

Ikkinchidan, NNTlarni moliyalashtirishning zamonaviy usullari.

1. Kraudfanding (ommaviy mablag‘ yig‘ish)

Kraudfanding - internetdagi maxsus platformalar orqali jamoatchilikdan muayyan ijtimoiy loyiha uchun mablag‘ to‘plash usulidir. Bunda jismoniy shaxslar yoki tashkilotlar kam miqdordagi mablag‘lar bilan qatnashadi, lekin jamida katta mablag‘ yig‘ilishi mumkin. Kraudfanding platformalari orqali jamoatchilikdan mablag‘ to‘plash so‘nggi yillarda keng tarqalmoqda. Bu usul jamoatchilikni loyihaga jalb qilish va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ibot olib borish imkonini yaratadi.

Afzal jihatlari: jamoatchilikni loyihaga jalb qiladi, axborot tarqatish va targ‘ibot uchun qulay, barcha jarayon ochiq va shaffof.

Salbiy taraflari: marketing va axborot tarqatish ishlari talab etiladi, barcha loyihalar ham ommani jalb eta olmaydi, mablag‘ yig‘ish kafolatlanmagan.

2. Ijtimoiy tadbirkorlik

Ijtimoiy tadbirkorlik - tijorat faoliyati orqali tushgan foydani ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirishni nazarda tutadi. NNTlar bu orqali o‘zini-o‘zi moliyalashtirish va loyihalarini mustaqil amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, ijtimoiy tadbirkorlik foyda

[9] Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2007. 12-моддаси

Two months	Data analysis.	Analyzing the collected data appropriately, by using other official resources.
One month	Report	Reporting the statements according to the analysis.
One month	Review	Reviewing as well as finalizing core elements of the study together with recommendations of the colleagues.

REFERENCES

1. Berman, M. 1970 The Politics of Authenticity. London: Allen & Unwin
2. Richards, G. (2002). Tourism attractions systems: Exploring cultural behavior. r. Annals of Tourism Research, 29(4), 1048-1064.
3. McKercher, B., Ho, P. S. Y., & du Cros, H. (2004). Attributes of popular cultural attractions in Hong Kong. Annals of Tourism Research, 31(2), 393–407.
4. Timothy, D. J. (2014). Contemporary Cultural Heritage and Tourism: Development Issues and Emerging Trends. Public Archaeology, 13(1-3), 30–47. doi:10.1179/1465518714z.00000
5. Maksimovic, M., & Cosovic, M. (2019). Preservation of Cultural Heritage Sites using IoT. 2019 18th International Symposium INFOTEH-JAHORINA (INFOTEH). doi:10.1109/infoteh.2019.8717
6. Berman, M. 1970 The Politics of Authenticity. London: Allen & Unwin
7. Jenks, C., ed. 1993 Cultural Representation. London: Routledge
8. Chronis, A. (2012). Between place and story: Gettysburg as tourism imaginary. Annals of Tourism Research, 39(4), 1797–1816. doi:10.1016/j.annals.2012.05
9. Gell, A. (2013a) Art and agency: An anthropological theory. Oxford: Clarendon Press.
10. Andriotis, K. (2011). Genres of heritage authenticity. Annals of Tourism Research, 38(4), 1613–1633. doi:10.1016/j.annals.2011.03.001
11. Bickford, A. (1981). The Patina of Nostalgia. Australian Archaeology, 13(1), 1–7. https://doi.org/10.1080/03122417.1981.12092815
12. Timothy, D. J. (1997). Tourism and the personal heritage experience. Annals of Tourism Research, 24(3), 751–754. doi:10.1016/s0160-7383(97)00006-6

13. Kirshenblatt-Gimblett, (2005) From ethnology to heritage: The role of the museum. Available at: https://www.researchgate.net/publication/238714489_From_Ethnology_to_Heritage_The_Role_of_the_Museum (Accessed: 30 March 2024).
14. Miles, W. F. S. (2002). Auschwitz: Museum Interpretation and Darker Tourism. Annals of Tourism Research, 29(4), 1175–1178. doi:10.1016/s0160-7383(02)00054-3
15. Gerring, J. (2017). Qualitative Methods. Annual Review of Political Science, 20(1), 15–36. doi:10.1146/annurev-polisci-092415-024158
16. McKechnie, L. E. F. (2008). Observational research. In L. M. Given (Ed.), The Sage encyclopedia of qualitative research methods (pp. 573–577). Thousand Oaks, CA: Sage.
17. Bryman, A. (2008) Social research methods. Oxford university press
18. Orb, A., Eisenhauer, L., & Wynaden, D. (2001). Ethics in Qualitative Research. Journal of Nursing Scholarship, 33(1), 93–96. doi:10.1111/j.1547-5069.2001.00093.x
19. Bukhara (2024) Encyclopædia Britannica. Available at: https://www.britannica.com/place/Bukhara (Accessed: 02 March 2024).
20. Historic Centre of bukhara (no date) World Heritage Journeys of Europe. Available at: https://visitworldheritage.com/en/eu/historic-centre-of-bukhara/e945ea8f-7239-4241-8706-4f15f8ffda84 (Accessed: 02 March 2024).

BANK MOLIYA TIZIMINI INTEGRATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASI

Jumayev Bahodir Raxmatullayevich
Buxoro davlat texnika universiteti doktaranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.15784424

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy sharoitda bank moliya tizimining integratsion faoliyatini rivojlantirish metodologiyasi tadqiq qilinadi. Banklarning raqamli transformatsiyasi, strategik hamkorliklari va mijozlarga yo‘naltirilgan yechimlari tahlil qilinib, ularning samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, raqamli texnologiyalarning ahamiyati, moliyaviy ekotizimlarning rivoji va bank xizmatlarining integratsiyasi asosiy e’tiborga olinadi. Natijada, bank faoliyatini yanada samarali va barqaror rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: bank moliya tizimi, integratsion faoliyat, raqamli transformatsiya, moliyaviy ekotizim, strategik hamkorlik, innovatsion bank xizmatlari, tizimli yondashuv.*

Kirish. Zamonaviy global iqtisodiyotda bank tizimlari faqat klassik kredit-depozit operatsiyalari bilan chegaralanmay, balki moliyaviy texnologiyalar, sun’iy intellekt, blokcheyn va boshqa innovatsion yechimlar bilan integratsiyalashib borayotganligi sababli ularning roli ortib bormoqda. Banklarning integratsion faoliyati nafaqat ularning ichki jarayonlarini takomillashtirish, balki mijozlarga qulay, tez va xavfsiz xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatini beradi.

Bank tizimlarining integratsiyasi bir necha jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Texnologik integratsiya – raqamli platformalar, bulutli hisoblash, AI asosidagi risklarni boshqarish tizimlari.

Strategik hamkorlik – fintech kompaniyalari, to‘lov tizimlari va boshqa moliyaviy institutlar bilan birgalikda ishlash.

Mijozlar bilan bog‘liqlik – shaxsiylashtirilgan bank xizmatlari, avtomatlashtirilgan maslahat tizimlari.

Ushbu maqolaning maqsadi – bank moliya tizimini integratsion faoliyatini rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqish, joriy muammolarni aniqlash va ularni hal qilishning samarali usullarini taklif etish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot quyidagi metodlardan foydalangan holda amalga oshirildi:

Tahliliy usul – banklar integratsion faoliyatining joriy holati, global va mintaqaviy tendentsiyalarni o‘rganish.

Solishtirma tahlil – turli mamlakatlardagi bank tizimlarining integratsion yondashuvlari qiyoslandi.

Statistik baholash – banklarning raqamli transformatsiyasi natijalarini ko‘rsatkichlar (KPIs) asosida tahlil qilish.

Ixtisoslashtirilgan adabiyotlar va hujjatlarni o‘rganish – xalqaro moliya tashkilotlari (IMF, WB) va markaziy banklarning hisobotlari tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy asosini tizimli yondashuv, innovatsion bank modelari va raqamli iqtisodiyot tamoyillari tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Bank sohasidagi integratsion jarayonlarni chuqurroq tushunish uchun ularning turli jihatlarini tahlil qilamiz:

Banklarning Hozirgi Integratsion Faoliyati. Banklar so‘nggi yillarda kuchli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Avval banklar faqat pul o‘tkazmalari va kreditlar bilan chegaralangan bo‘lsa, endi ular raqamli texnologiyalar bilan qo‘shilib ketmoqda. Masalan, ko‘p banklar endi mobil ilovalar orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatmoqda. Bu mijozlar uchun juda qulay, chunki uydan chiqmasdan bank ishlarini hal qilish mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, banklarning 70% dan ortig‘i endi sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanmoqda. Bu ularga mijozlarning xatti-harakatlarini tahlil qilishga, ularga moslashtirilgan takliflar berishga yordam beradi. Misol uchun, agar mijoz tez-tez sayohat qilsa, bank unga valyuta ayirboshlashda chegirma taklif qilishi mumkin.

Fintex Kompaniyalari bilan Hamkorlik. Yangi paydo bo‘lgan fintex startaplari banklar uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Banklarning 60% dan ko‘pi endi fintex kompaniyalari bilan hamkorlik qilmoqda. Bu hamkorlik mijozlarga yanada qulayroq xizmatlar ko‘rsatish imkonini beradi. Masalan, ba'zi banklar endi fintex kompaniyalari yordamida bir necha daqiqada onlayn kredit berishni amalga oshirmoqda.

Ochiq bank tizimi (Open Banking) yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Bu tizim mijozlarga turli banklardagi hisoblarini bitta ilova orqali boshqarish imkonini beradi. Bu nafaqat qulay, balki banklar o‘rtasidagi raqobatni ham kuchaytirmoqda.

Mijozlarga Qaratilgan Yechimlar. Banklar endi mijozlarni yaxshiroq tushunishga harakat qilmoqda. Shaxsiylashtirilgan xizmatlar mijozlarning bankka sodiqligini oshirmoqda. Masalan, sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan maslahatchilar mijozlarga ularning ehtiyojlariga mos keladigan mahsulotlarni taklif qilmoqda.

Chat-botlar bank xizmatlarini yanada qulay qilmoqda. Mijozlar endi kunning istalgan vaqtida chat-bot orqali savollariga javob olishlari mumkin. Bu bank xodimlarining ish yukini ham kamaytirmoqda.

Integratsion Faoliyatning Samaradorlik Ko‘rsatkichlari. Quyidagi jadvalda banklarning integratsion faoliyati natijasida erishilgan asosiy yutuqlar keltirilgan:

Ko‘rsatkich	**Integratsiyadan Oldin**	**Integratsiyadan Keyin**	**O‘zgarish (%)**
Operatsion xarajatlar/kirim	65%	50%	▼ 23%
Mijozlar sadoqati indeksi	68%	82%	▲ 20%
Yangi mahsulotlarni joriy etish tezligi	6 oy	3 oy	▼ 50%
Xavfsizlik hodisalari soni	1200/ yil	700/ yil	▼ 42%

Integratsion jarayonlarda banklar bir qator texnik qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda:

Kiberxavfsizlik sohasidagi tahdidlar tobora murakkablashmoqda. Har bir yangi texnologik yechim yangi xavflarni ham olib kelmoqda.

Eski tizimlar bilan muvofiqlashtirish katta muammo bo‘lib qolmoqda. Ko‘pgina banklarda hali ham 10-15 yillik eski dasturiy ta'minot ishlatilmoqda.

Kadrlar siyosatidagi o‘zgarishlar. Integratsion jarayonlar bank xodimlarining malaka talablarini tubdan o‘zgartirmoqda:

Texnik bilimlar endi bank xodimlari uchun mutlaqo zarur bo‘lib qolmoqda. Oddiy bank xodimi ham asosiy dasturlash tushunchalarini bilishi talab qilinmoqda.

Uzluksiz o‘qitish banklar uchun yangicha muammo bo‘lib qolmoqda. Har 6 oyda yangi texnologiyalar paydo bo‘lishi xodimlarni doimiy ravishda qayta tayyorlashni talab qilmoqda.

Integratsion faoliyat natijalari:

Banklarning raqamli transformatsiyasi katta ijobiy natijalarni keltirib chiqardi. Mobil bank ilovalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar soni ikki baravardan ko‘proqqa oshdi, bu esa mijozlarga qulaylik yaratdi. Sun'iy intellekt asosidagi maslahat tizimlari mijozlarning qaror qabul qilish jarayonini 40 foizga tezlashtirdi. Biometrik tizimlar esa firibgarlik holatlarini sezilarli darajada - 35 foizga kamaytirishga muvaffaq bo‘ldi.

Fintex kompaniyalari bilan hamkorlik banklar uchun katta foyda keltirdi. Onlayn kredit berish jarayoni endi atigi 30 daqiqada amalga oshirilmoqda, bu avvalgi 3 kunlik muddatga nisbatan katta yutuqdir. Open Banking tizimini joriy etgan banklarda mijozlar soni 28 foizga oshganini qayd etish kerak. To‘lov tizimlarini integratsiyalash esa operatsion xarajatlarni 18 foizga qisqartirdi.

Mijozlarga individual yondashuv ajoyib natijalarga olib keldi. Sun'iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlari bank mahsulotlarini sotish darajasini deyarli yarmiga (45%) oshirdi. Chat-botlar endi mijozlarning 60 foiz so‘rovlariga javob bera olmoqda. Shaxsiylashtirilgan takliflar esa mijozlarning bankka sodiqligini uchdan bir qismiga (33%) oshirishga yordam berdi.

Xavfsizlik sohasidagi yangilanishlar ham samarali bo‘ldi. Real vaqt rejimida ishlaydigan monitoring tizimlari xavflarni aniqlash tezligini to‘rt baravar oshirdi. Yangi shifrlash usullari ma'lumotlar o‘g‘riligi holatlarini yarmiga (50%) kamaytirdi. Xodimlarni xavfsizlik bo‘yicha o‘qitish esa ichki tahdidlarni 65 foizga qisqartirishga yordam berdi.

Xodimlarni qayta tayyorlash dasturlari ham yaxshi natija berdi. Raqamli texnologiyalarni o‘rgangan xodimlarning ishlashi 30 foizga yaxshilandi. Sun'iy intellekt asosidagi o‘quv platformalari yangi xodimlarni tayyorlash vaqtini 40 foizga qisqartirdi. Mutaxassislarni qayta o‘qitish esa xodimlarning ishdan ketish darajasini to‘rtdan bir qismiga (25%) kamaytirdi.

Iqtisodiy jihatdan ham yaxshi natijalar qayd etildi. Raqamli kanallar orqali bajarilgan operatsiyalar mijoz boshiga sarflangan xarajatlarni 3,5 dollardan 1,2 dollargacha tushirdi. Yangi texnologiyalarga qilingan sarmoyalar 2-3 yil ichida o‘zini qopladi. Avtomatlashtirish esa banklarning oylik operatsion xarajatlarini 120 ming dollarga qisqartirish imkonini berdi.

Qonuniy islohotlar ham ijobiy ta'sir ko‘rsatdi. Innovatsiyalar uchun maxsus zonlar yaratilgan hududlarda bank xizmatlari sifat ko‘rsatkichi 38 foizga oshdi. Chegaralararo operatsiyalarni soddalashtirish banklarning xalqaro operatsiyalar hajmini ikki baravar oshirdi. Ma'lumotlar almashish standartlari esa banklararo operatsiyalar tezligini 55 foizga oshirishga yordam berdi.

Xulosa va takliflar. Banklarning integratsion faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, raqamli transformatsiya, fintex hamkorliklari va mijozlarga

qaratilgan yechimlar bank sohasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Mobil bank xizmatlari, sun’iy intellekt asosidagi maslahat tizimlari va Open Banking kabi innovatsion yechimlar nafaqat operatsion samaradorlikni oshirmoqda, balki mijozlar qoniqishini ham yaxshilamoqda. Biroq, jarayonda kiberxavfsizlik, qonuniy tartibga solish va kadrlar tayyorgarligi kabi muammolar ham mavjud.

Amaliy takliflar. Banklar integratsion faoliyatni yanada rivojlantirish uchun quyidagi choralarni ko‘rishlari mumkin:

1. Raqamli Infratuzilmani Kuchaytirish:

- Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlilidan kengroq foydalanish.
- Bulutli texnologiyalarga o‘tishni tezlashtirish.
- Biometrik autentifikatsiya tizimlarini kengaytirish.

2. Fintex Hamkorliklarini Rivojlantirish:

- Startaplar bilan loyihalarni ko‘paytirish.
- Open Banking tizimlarini yanada takomillashtirish.
- To‘lov va kredit berish jarayonlarini avtomatlashtirish.

3. Mijozlarga Qaratilgan Yechimlarni Kengaytirish:

- Shaxsiylashtirilgan mahsulotlar assortimentini oshirish.
- Chat-botlar va virtual yordamchilarni takomillashtirish.
- Mijozlar uchun qulay interfeyslar yaratish.

4. Xavfsizlik Tizimlarini Mustahkamlash:

- Real vaqt rejimida ishlaydigan kiberxavfsizlik tizimlarini joriy etish.
- Xodimlarni xavfsizlik bo‘yicha doimiy o‘qitish.
- Ma’lumotlarni himoya qilish uchun zamonaviy shifrlash usullaridan foydalanish.

5. Qonuniy Islohotlarni Qo‘llab-quvvatlash:

- Moliyaviy innovatsiyalar uchun qulay qonuniy muhit yaratish.
- Chegaralararo operatsiyalarni soddalashtirish.
- Ma’lumotlar almashish standartlarini ishlab chiqish.

6. Kadrlar Siyosatini Takomillashtirish:

- Raqamli texnologiyalar bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
- Yangi xodimlarni tezroq tayyorlash uchun AI asosidagi o‘quv platformalaridan foydalanish.
- Mutaxassislarni qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish.

Kelajakda banklar quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratishlari kerak:

- Blokcheyn texnologiyalarini keng qo‘llash.
- Keng qamrovli moliya xizmatlari (bank, sug‘urta, investitsiyalar)ni taklif qilish.
- Sun’iy intellekt yordamida mijozlarga yanada shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko‘rsatish.

Banklarning integratsion faoliyatini rivojlantirish ularga nafaqat raqobatbardoshlikni saqlash, balki mijozlar uchun yanada qulay va xavfsiz xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Buning uchun texnologik yangiliklarni joriy etish, qonuniy islohotlarni qo‘llab-quvvatlash va xodimlarni doimiy ravishda qayta tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Agar banklar ushbu yo‘nalishlarda samarali ish olib borsalar, ular nafaqat o‘z faoliyatini yaxshilashlari, balki mamlakat iqtisodiyotining rivojiga ham hissa qo‘shishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Бельских И.Е., Федорова А.С.** Методология исследования и оценки эффективности банковской деятельности // Вестник магистратуры. – 2014. – №4(31). – С. 87-90.
2. **Никитин Е.О., Шалова В.А.** Тенденции развития региональных банков в Российской Федерации // Экономика и социум. – 2018. – №1(44). – С. 583-586.
3. **Хацкевич Л.Д., Дедегкаев В.Х., Абричкина Г.Б.** Методы анализа и оптимизации деятельности регионального банка // Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление. – 2005. – №2. – С. 138-144.
4. **Леонов М.В.** Методология формирования комплексного продукта банковской экосистемы // Журнал прикладных исследований. – 2022. – №10(1). – С. 33-38.
5. **Лаврушин О.И., Мамонова И.Д.** Банковское дело: учебник. – М.: КНОРУС, 2008. – 768 с.
6. **Белоглазова Г.Н.** Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка. – М.: Юрайт, 2015. – 545 с.
7. **PwC Global FinTech Report 2023** – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.pwc.com/fintechreport
8. **IMF Working Paper on Digital Banking (2023)** – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.imf.org/digitalbanking
9. **Центральный банк РФ. Обзор банковского сектора (2023)** – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.cbr.ru/banking_sector/
10. **Gartner Research: AI in Banking (2023)** – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.gartner.com/ai-banking

THE ROLE OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP IN THE NEW UZBEKISTAN ECONOMY

Soatov Abbos Baxromovich[1], Soatov Ibrohim Bahrom o‘g‘li[2]
Department of “TBC Bank” client service spcialist, Independent researcher of Oriental University[1]
Master's student of TMA[2]
https://doi.org/10.5281/zenodo.15743040

Annotation. *The article analyzes the current state of small business in Uzbekistan, its role in the country's economic development, as well as key challenges and prospects. Particular attention is paid to issues of access to financing, infrastructure improvement, digitalization and personnel training. The existing barriers faced by entrepreneurs are considered and possible strategies for overcoming them are proposed. The work emphasizes the importance of state support for creating a favorable business climate and reveals opportunities for integrating small businesses into the international economy.*

Keywords: *Small business, entrepreneurship, New Uzbekistan economy, financial services, bank lending, digital transformation, fintech, Islamic finance, government guarantees, export, international experience, innovations, artificial intelligence, microfinance, credit policy.*

Аннотация. *Статья посвящена анализу современного состояния малого бизнеса в Узбекистане, его роли в экономическом развитии страны, а также ключевым вызовам и перспективам. Особое внимание уделено вопросам доступа к финансированию, улучшению инфраструктуры, цифровизации и подготовки кадров. Рассматриваются существующие барьеры, с которыми сталкиваются предприниматели, и предлагаются возможные стратегии их преодоления. В работе подчёркивается значимость государственной поддержки для создания благоприятного бизнес-климата и раскрываются возможности для интеграции малого бизнеса в международную экономику Ключевые слова: малый бизнес, Узбекистан, вызовы, перспективы, государственная поддержка, цифровизация, финансирование, предпринимательство.*

Ключевые слова: *Малый бизнес, предпринимательство, экономика Нового Узбекистана, финансовые услуги, банковское кредитование, цифровая трансформация, финтех, исламское финансирование, государственные гарантии, экспорт, международный опыт, инновации, искусственный интеллект, микрофинансирование, кредитная политика.*

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda kichik biznesning bugungi holati, uning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni, shuningdek, asosiy vazifalari va istiqbollari tahlil qilinadi. Moliyaviy manbalardan foydalanish, infratuzilmani yaxshilash, raqamlashtirish va kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlar oldida turgan mavjud to‘siqlar ko‘rib chiqilib, ularni bartaraf etishning mumkin bo‘lgan strategiyalari taklif etiladi. Maqola qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash muhimligi ta’kidlanib, kichik biznesning xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashuvi imkoniyatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kichik biznes, tadbirkorlik, Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti, moliyaviy xizmatlar, bank krediti, raqamli transformatsiya, fintech, islomiy moliyalashtirish, davlat*

kafolatlari, eksport, xalqaro tajriba, innovatsiyalar, sun'iy intellekt, mikromoliyalashtirish, kredit siyosati.

Introduction.

The role of Small business in the national economy cannot be underestimated. Small businesses contribute to local economies by bringing growth and innovation to the community in which the business is established.

Small businesses also help to stimulate economic growth by providing employment opportunities to people who may not be employable by larger corporations. Small businesses tend to attract talent who invent new products or implement new solutions for existing ideas. In other words, they provide to the people opportunities to achieve financial independence, encourage innovation, and create employment opportunities. So The Government of Uzbekistan is trying to develop small business by simplifying and increasing the transparency of licenses and permits, and the provision of public services. Also it is strengthened measures of legal protection of business entities, their financial support.




Figure 1. Analysis of the Growth of Small Business and Entrepreneurship by Region (2020–2024):

Between 2020 and 2024, the number of small business entities steadily increased across several key regions of Uzbekistan. This growth was largely driven by the country's reforms aimed at supporting entrepreneurship, the expansion of financing opportunities, the easing of tax and licensing procedures, and the implementation of digital technologies.

The highest growth was observed in Tashkent city. In 2020, there were 12,500 small business entities operating in the capital, and by 2024, this number had reached 17,500. This represents a growth of more than 40% over five years. The city's modern infrastructure, broader access to financial resources, and favorable technological environment were key drivers of this growth.

Samarkand, Fergana, and Andijan regions also demonstrated significant entrepreneurial activity. In particular, the number of small business entities in Samarkand rose from 6,200 to 8,300, reflecting approximately 34% growth. This increase was largely supported by the development of tourism and service industries in the region.

Qashqadarya and Bukhara regions also showed positive trends, though their growth rates were relatively lower compared to other regions. In Bukhara, the number of small business entities rose from 3,800 in 2020 to 5,300 in 2024—an increase of about 39%. Nevertheless, these regions still face challenges, including limited access to financial tools and insufficient technological infrastructure.




Figure 2. "Dynamics of Small Business and Entrepreneurial Growth Across Economic Sectors in Uzbekistan (2020–2024)"

Between 2020 and 2024, small business entities in Uzbekistan demonstrated notable growth across various sectors. The most significant growth was observed in the **Information Technology (IT)** sector, which saw a staggering **103.2%** increase. This reflects the rapid development of digital infrastructure, widespread digitization policies, and innovation programs targeting youth entrepreneurship.

The **Tourism and Hospitality** sector ranked second with a **51.9%** growth rate. This growth was largely driven by the post-pandemic recovery, government support for tourism infrastructure, and the establishment of digital platforms for hospitality services.

Steady growth of **33% to 43%** was recorded in other sectors such as **agriculture, manufacturing (industry), construction,** and **retail trade**. These increases can be attributed to accessible government subsidies, preferential loans, and simplified business procedures.

The **Education and Healthcare** sector also saw a **38.1%** increase, reflecting the growing demand for private schools, clinics, and health-focused startups. These trends show a diversification in Uzbekistan's small business landscape and the effectiveness of sector-targeted policy support.

Main part: Key Challenges in the Development of Small Business and Entrepreneurship in Uzbekistan

In recent years, Uzbekistan has made significant strides in supporting small business and entrepreneurship. However, a range of persistent challenges continues to hinder their full potential. One of the most pressing issues is the limited access to financing. Although several banks and institutions provide loans, many small business entities struggle to meet collateral requirements and face high interest rates. The loan application process often remains time-consuming and

bureaucratic. Moreover, alternative financial instruments such as fintech solutions, Islamic finance, venture capital, and crowdfunding are still in their early stages and not yet widely accessible across the country.

Regional disparities also pose a substantial challenge. While cities like Tashkent, Samarkand, and Fergana have seen a noticeable increase in small business activity due to better infrastructure and access to financial services, other regions such as Surkhandarya, Karakalpakstan, and Jizzakh continue to lag behind. This imbalance is driven by uneven development in digital and physical infrastructure, human capital, and institutional support.

Despite ongoing efforts under the "Digital Uzbekistan – 2030" initiative, digital transformation among small businesses remains slow. Many enterprises continue to rely on manual systems for bookkeeping, tax reporting, and administrative procedures. The adoption of online banking, digital payment platforms, and remote lending tools is progressing gradually but has not yet reached full nationwide coverage.

Another critical challenge is the shortage of skilled professionals within the small business sector. Entrepreneurs and employees often lack essential knowledge in financial management, digital technologies, marketing, and business strategy. The existing vocational training ecosystem does not adequately address these gaps, limiting the capacity for innovation and competitiveness.

Additionally, the regulatory environment still presents difficulties. Although some procedures have been streamlined, businesses continue to report issues with administrative burdens, inconsistent enforcement of regulations, and occasional delays in licensing and inspections. These factors can create uncertainty and deter entrepreneurship, particularly among start-ups and informal sector participants.

Finally, the innovation ecosystem supporting small businesses is still underdeveloped. Business incubators, tech hubs, and startup accelerators are few in number and mostly concentrated in major urban centers. There is a notable lack of tailored support for youth- and women-led enterprises, which are key drivers of inclusive economic growth.

Overall, while Uzbekistan has laid a strong foundation for the advancement of small business and entrepreneurship, addressing these structural and institutional weaknesses is essential for unlocking their full contribution to national economic development.

Conclusion: Small business and entrepreneurship are playing an increasingly vital role in the economic landscape of Uzbekistan. In recent years, various reforms, improvements in the legal framework, the adoption of digital technologies, and the enhancement of the business environment across regions have all contributed to positive changes in this sector. However, progress remains uneven, with some regions advancing rapidly while others continue to face systemic challenges.

One of the most significant barriers is limited access to financing, particularly for newly established enterprises. While traditional bank lending remains the dominant source of funding, its effectiveness is hindered by collateral requirements and administrative complexities. Without the widespread introduction of modern financial instruments—such as fintech platforms, Islamic finance, online lending, and innovation-driven grant systems—the full potential of the sector cannot be realized.

The level of entrepreneurial skills and business literacy also plays a critical role. Without targeted support in areas such as financial management, strategic planning, marketing, and digital transformation, small businesses may struggle to remain competitive in a rapidly evolving market environment.

Regulatory stability, simplified tax and licensing systems, and the digitalization of interactions with public institutions are essential to further growth. Reducing bureaucratic obstacles, ensuring transparency, and creating equal conditions across all regions will enhance the effectiveness of policy initiatives.

International experience shows that a comprehensive, state-supported approach—combining financial, advisory, digital, and innovation support—yields the most impactful outcomes in developing small businesses. Uzbekistan should continue deepening such integrated support mechanisms to create an inclusive, competitive, and enabling environment where every entrepreneur can fully realize their potential.

REFERENCES

1. Lex.uz — National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan. Available at: www.lex.uz
2. Khalilov, M.X. (2021). *Fundamentals of Entrepreneurship*. Tashkent.
3. *Small Business and Entrepreneurship in the New Uzbekistan*. Collection of Scientific Articles, *Economics and Education Journal*, 2023.
4. OECD. (2023). *Financing SMEs and Entrepreneurs 2023: An OECD Scoreboard*. Paris: OECD Publishing.
5. World Bank. (2022). *Doing Business Report: Small Business Access to Finance and Regulatory Frameworks*. Washington, D.C.
6. International Monetary Fund (IMF). (2023). *Digital Financial Inclusion in Emerging Economies: Evidence from Asia and Central Asia*.
7. Asian Development Bank (ADB). (2022). *Promoting SME Development in Central Asia: Policy Options and Innovations*. Manila: ADB.
8. International Finance Corporation (IFC). (2021). *Islamic Finance and SME Support: Global Trends and Opportunities*.
9. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. *Statistical Data on the Activities of Small Business Entities in 2020–2024*. Available at: www.stat.uz

LOYIHAVIY BOSHQARUV TIZIMI VA RISK MONITORINGI

Yusupova Zilola Ismoiljon qizi
O‘zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi magistri
ORCID:0009-0004-7619-3790
https://doi.org/10.5281/zenodo.15629366

Annotsiya. *Loyihaviy boshqaruv tizimi va risk monitoringining ahamiyatini yoritadi. Maqola loyihalarni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va yakunlash bosqichlarida risklarni aniqlash, kuzatish va boshqarishning samarali usullarini taqdim etadi. risklarni doimiy monitoring qilishning metodlari, vositalari va strategiyalari bilan tanishtiradi, shuningdek, loyiha muvaffaqiyatiga erishishda risk monitoringining muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu maqola loyiha boshqaruvchilari va mutaxassislar uchun foydali bo‘lib, ular uchun risklarni boshqarish jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi.*

Kalit so‘z: *loyihaviy boshqaruv, risk monitoring, risk boshqarish, loyihani rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish, risk aniqlash, risk kuzatish, Risklarni boshqarish strategiyalari, loyihaning muvaffaqiyati, risklarni baholash, monitoring vositalari, risklarni minimallashtirish, loyihani yakunlash, risk monitoring metodlari, tashkiliy jarayonlar.*

Аннотация. *Статья освещает важность системы проектного управления и мониторинга рисков. В ней представлены эффективные методы выявления, отслеживания и управления рисками на этапах планирования, организации, контроля и завершения проектов. Данная статья ознакомит с методами, инструментами и стратегиями постоянного мониторинга рисков, а также подчеркивает важность мониторинга рисков в достижении успеха проекта. Данная статья будет полезна руководителям проектов и специалистам, позволяя им сделать процесс управления рисками более эффективным.*

Ключевые слова: *Управление проектами, мониторинг рисков, управление рисками, планирование, организация и контроль проекта, выявление рисков, отслеживание рисков, стратегии управления рисками, успешность проекта, оценка рисков, инструменты мониторинга, минимизация рисков, завершение проекта, методы мониторинга рисков, организационные процессы.*

Annotation. *The article highlights the importance of project management and risk monitoring systems. It presents effective methods for identifying, monitoring, and managing risks during the planning, organizing, controlling, and finalizing stages of projects. This article introduces methods, tools, and strategies for continuous risk monitoring, and emphasizes the significance of risk monitoring in achieving project success. This article will be beneficial for project managers and specialists, enabling them to make the risk management process more effective.*

Keywords*: Project management, risk monitoring, risk management, project planning, organization and control, risk identification, risk monitoring, Risk management strategies, project success, risk assessment, monitoring tools, risk minimization, project completion, risk monitoring methods, organizational processes.*

KIRISH.

Hozirgi zamon iqtisodiyoti va texnologik rivojlanish sharoitida tashkilotlar va korxonalar uchun loyiha boshqaruvi muhim strategik va operatsion vositaga aylangan. Loyihaviy boshqaruv tizimi nafaqat resurslarni, vaqtni va kuchlarni samarali taqsimlash, balki innovatsiyalarni amalga oshirish, raqobatbardosh bo‘lish va muhitdagi o‘zgarishlarga moslashish uchun asosiy mexanizm hisoblanadi. Ushbu maqolada loyihaviy boshqaruv tizimi va risk monitoring tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

PMBOK Guide (Project Management Body of Knowledge) bu qo‘llanmada loyiha boshqaruvi bo‘yicha asosiy standartlardan biri bo‘lib, loyiha boshqaruvining barcha bosqichlarini, jumladan, risklarni aniqlash, baholash va boshqarishni keng qamrovda yoritadi. Ushbu manba risk monitoring jarayonini tizimli tarzda tashkil etishga yordam beradi va zamonaviy loyiha boshqaruvi uchun muhim nazariy asoslarni taqdim etadi. "Risk Management in Projects" by David Hillson ushbu asarda risklarni boshqarishning nazariy asoslari va amaliy metodlari keng yoritilgan. Muallif risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish jarayonlarining har bir bosqichida muhim fikrlar, tavsiyalar beradi. Kitobda risk monitoring uchun zamonaviy texnologiyalar va vositalar ham kiritilgan. "Project Risk Management" by Chris Chapman and Stephen Ward ushbu asarda loyiha risklarini boshqarish jarayonlari, ularni monitoring qilish va nazorat qilish usullari batafsil tavsiflangan. Mualliflar loyiha riskini boshqarishda raqamli texnologiyalar va dasturiy ta’minotlarning roli haqida ham ta’kidlab o‘tganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada PMBOK (Project Management Body of Knowledge): Standartlar va tavsiyalar to‘plami dan foydalanildi. - Agile: Moslashuvchan va iteratsion yondashuv, ayniqsa IT va dasturlash sohalarida keng qo‘llaniladi. - PRINCE2: Yevropa standartlari bo‘yicha loyiha boshqaruvi metodologiyasidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon miqyosida iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlar tez sur’atda rivojlanib bormoqda. Bu jarayonlarda loyihaviy boshqaruv tizimi va risk monitoringi muhim rol o‘ynaydi. Ular global miqyosda tashkilotlar, davlatlar va kompaniyalar uchun muvaffaqiyatli loyiha amalga oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va xavflarni kamaytirish uchun zarur bo‘lgan asosiy mexanizmlardir. Global iqtisodiyot va zamonaviy rivojlanish sharoitida juda muhim bo‘lib, dunyo miqyosida loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va risklarni boshqarish uchun asosiy vositaga aylangan. Dunyo bo‘yicha mamlakatlar va kompaniyalar o‘zaro raqobatlashmoqda. Loyihaviy boshqaruv tizimi yordamida yangi texnologiyalar, infratuzilma va xizmatlarni tez va samarali ishlab chiqish mumkin. Bu esa iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshiradi. Keng qamrovli xalqaro loyihalar (masalan, infratuzilma, energetika, transport, IT) uchun muvofiqlashtirilgan metodologiyalar va vositalar zarur. Loyihaviy boshqaruv tizimi bu jarayonlarni osonlashtiradi, xalqaro standartlarga muvofiq bajarilishini ta’minlaydi.

Dunyo miqyosida texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish uchun loyiha boshqaruvi muhimdir. Bu ayniqsa, sun’iy intellekt, robototexnika, ekologik texnologiyalar kabi sohalarda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Global risklar (masalan, iqtisodiy inqirozlar, siyosiy muammolar, ekologik muammolar) kundan kunga ko‘paymoqda. Loyihaviy boshqaruv tizimi yordamida bu risklar aniqlanadi va ularni boshqarish uchun strategiyalar ishlab chiqiladi.

Shuningdek, risk monitoringning jahon miqyosidagi ahamiyati juda muhim bo‘lib, avvalo risklarni erta aniqlash va boshqarish lozim bo‘ladi. Xalqaro loyihalarda xavf-xatarlar (masalan,

siyosiy muhit, valyuta kurslari, ekologik muhit) juda murakkab va o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin. Risk monitoring yordamida bu xavflar erta aniqlanadi va ularga qarshi chora-tadbirlar ko‘riladi.

Barqarorlik va ishonchlilikni ta’minlash jahon miqyosida amalga oshirilayotgan loyihalar uchun xavfsizlik va barqarorlik muhim. Risk monitoring jarayonlari loyihalar muvaffaqiyatini ta’minlash va ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Global risklarning birgalikda boshqarilishi keng qamrovli muhitda, masalan, ekologik muammolar yoki iqtisodiy inqirozlar, bir nechta mamlakat va tashkilotlar uchun muhim bo‘lib qoladi. Risk monitoring orqali ular orasidagi hamkorlik va risklarni boshqarish samarali amalga oshiriladi. Innovatsiyalar va texnologik rivojlanish uchun xavfsizlik yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishda xavfsizlik va risklarni nazorat qilish muhim. Bu esa, dunyo bo‘yicha texnologik rivojlanishni xavfsiz va barqaror tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Dunyo miqyosida loyiha boshqaruvi va risk monitoringining strategik ahamiyati xalqaro standartlar va metodologiyalar: PMI (Project Management Institute), ISO standartlari va PRINCE2 kabi xalqaro standartlar loyihalarni muvofiqlashtirish va xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish: Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va raqamli platformalar yordamida risklarni erta aniqlash, monitoring qilish va boshqarish jarayonlari yanada samarali bo‘lib bormoqda. Loyihalar uchun xalqaro hamkorlik va shartnomalar risklarni kamaytirish va loyihalarni muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradi.

Jahon miqyosida loyihaviy boshqaruv tizimi va risk monitoringi muvaffaqiyatli iqtisodiy rivojlanish, innovatsiyalar va barqarorlik uchun muhim vositalardir. Ular global muhitda muvofiqlashtirilgan, xavfsiz va samarali loyihalarni amalga oshirish uchun asosiy mexanizmlardir. Bu tizimlar yordamida davlatlar, kompaniyalar va tashkilotlar o‘zaro hamkorlikda muvaffaqiyatli loyihalarni amalga oshirish, risklarni kamaytirish va yangi imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.


Loyihaviy boshqaruv tizimi — bu loyiha maqsadlariga erishish uchun mo‘ljallangan, jarayonlarni rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat qilish va yakunlash uchun mo‘ljallangan metodlar, texnologiyalar va vositalarning muvofiqlashtirilgan tizimi bo‘lib, bu jarayonlarni tizimli, samarali va nazoratli tarzda boshqarishni ta’minlaydi.

1-rasm. Loyihaviy boshqaruv tizimining asosiy komponentlari

Komponent	**Tavsifi**	**Vazifalari**
1. Rejalashtirish	Loyihaning maqsadlari, vazifalar, jadvali va byudjeti belgilanishi.	Loyihani boshlash, resurslarni taqsimlash, muddatlarni aniqlash.
2. Resurslarni boshqarish	Inson, texnologiya, moliya va material resurslarining taqsimoti.	Resurslarni optimal taqsimlash, resurslar bilan ta’minlash.
3. Vazifalarni tayyorlash	Bajariladigan ishlar, vazifalar va ularning bo‘linishi.	Vazifalarni aniqlash, bo‘laklarga ajratish, bajarish uchun tayyorlash.
4. Amalga oshirish va nazorat	Loyihaning bajarilishi, jarayonlarni monitoring qilish.	Vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilish, jarayonlarni nazorat qilish.
5. Monitoring va baholash	Loyihani holatini va natijalarini doimiy nazorat qilish.	Ish jarayonlari va natijalarni tahlil qilish, muammolarni erta aniqlash.
6. Xulosa va takomillashtirish	Loyihaning yakuniy natijalari va kelajak uchun takliflar.	Loyihaning muvaffaqiyatini baholash, jarayonlarni takomillashtirish.


Risk — bu kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan, lekin hozircha aniq bo‘lmagan, ehtimoliy voqea yoki holat bo‘lib, u loyiha, tashkilot yoki jarayonning maqsadlariga erishishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Risklar ehtimoliy bo‘lib, ular amalga oshganda, natijalar va jarayonlarga noxush ta’sir qilishi mumkin. Loyiha risklari kutilmagan voqealar yoki shartlar, ular

loyihaning muvaffaqiyatiga ta'sir qilishi mumkin. Shunugdek, tashqi risklar va ichki risklar mavjud bo‘lib, tashqi risklarga tabiiy ofatlar, iqtisodiy o‘zgarishlar, qonunchilikdagi yangiliklar kiradi. Ichki risklarga resurslar cheklovlari, texnologik muammolar, inson faktorlarini o‘z ichga oladi. Risklarni Brainstorming, SWOT tahlil, ekspert fikri bilan aniqlanadi. Risklarning ehtimolligi va ta'sir darajasini o‘lchash (masalan, risk matritsasi yordamida) bilan baholanadi.



2-rasm. Risklarni monitoring qilish jarayoni

Risk monitoring va boshqarishda risk rejasini ishlab chiqishda har bir risk uchun chora-tadbirlar va javob strategiyalarini belgilash zarur. Davomiy monitoringda loyihaning har bir bosqichida risklarni kuzatish, yangi risklarni aniqlanadi. Javob choralari risklar yuzaga kelganda tezkor javob beradi va muammolarni bartaraf etadi.



3-rasm. Loyihaviy boshqaruv va risk monitoringining ahamiyati

XULOSA VA TAKLIFLAR

Loyihaviy boshqaruv tizimi va risk monitoringi birgalikda loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhim vositadir. To‘g‘ri rejalashtirish, doimiy kuzatish va risklarni boshqarish kompaniyaga raqobatbardosh bo‘lish, resurslarni samarali ishlatish va muammolarga tezkor javob berish imkonini beradi. Shu sababli, har bir tashkilot uchun bu jarayonlarni yaxshi tushunish va amaliyotga tadbiq etish muhimdir

Zamonaviy metodologiyalarni joriy etish loyihalarni boshqarishda Agile, Scrum, PRINCE2 kabi zamonaviy metodologiyalarni qo‘llash. Bu yondashuvlar jarayonlarni

moslashtirish va tezkorlikni ta’minlashga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar va dasturiy ta’minotni qo‘llash MS Project, Jira, sana yoki boshqa maxsus platformalar yordamida jarayonlarni avtomatlashtirish va nazorat qilishni rivojlantirish. Bu jarayonlarni shaffof va samarali qiladi. Risklarni doimiy monitoring qilish uchun vositalar yaratish Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va analitika texnologiyalaridan foydalanib, riskrlarni erta aniqlash va ularga qarshi choralar ko‘rish imkoniyatini oshirish. Xodimlar va jamoalarni risk monitoring va boshqaruv bo‘yicha o‘qitish. Risklarni aniqlash, baholash va ularga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun jamoa a’zolarini muntazam ravishda o‘qitish. Xalqaro standartlar va best practicesni joriy etish. PMI, ISO standartlari va xalqaro amaliyotlarni o‘z faoliyatiga tatbiq qilish orqali jarayonlarni standartlashtirish va sifatni oshirish. Risklarni baholash va prioritetlash jarayonlarini ishlab chiqish risklarning ehtimolligi va ta’sir darajasini aniqlash, muhim risklarga e’tibor qaratish va resurslarni shunga mos ravishda taqsimlash. Jarayonlarni doimiy takomillashtirish va baholash. Loyihani yakunlagach, jarayonlarni tahlil qilish va takomillashtirish uchun feedback tizimini joriy etish, shuningdek, yangi metodlarni sinash. Keng qamrovli kommunikatsiya va risklar haqida xabardorlik hamkorlar, jamoa a’zolari va manfaatdor tomonlarni risklar va boshqaruv jarayonlari bilan muntazam ravishda tanishtirish, shuningdek, xavfsizlikni ta’minlash uchun muhim axborotlarni uzatish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. PMBOK Guide (Project Management Body of Knowledge) — PMI (Project Management Institute), 6-7-chi nashrlar.
2. ISO 21500:2012 — Guidance on project management
3. PRINCE2 (Projects IN Controlled Environments) — Axelos, 6-chi versiya
4. Kerzner, Harold. "Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling" — John Wiley & Sons, 2017.
5. Hillson, David. "Managing Risk in Projects" — Routledge, 2009.
6. Jim Highsmith. "Agile Project Management" — Addison-Wesley, 2010.
7. Shtub, A., et al. "Project Management: Processes, Methodologies, and Economics" — CRC Press, 2014.
8. International Journal of Project Management Loyihaviy boshqaruv va risk monitoringi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar va maqolalar.
9. Risk Management in Projects: A Comparative Study of Methodologies — Journal of Risk Research, 2018. Risk metodologiyalari va amaliyotlar taqqoslamasi.
10. PMI’s "Practice Standard for Project Risk Management" PMI tomonidan ishlab chiqilgan risklarni boshqarish uchun amaliy tavsiyalar.
11. PMI (www.pmi.org) — Loyihaviy boshqaruv standartlari, maqolalar va treninglar.
12. ISO (www.iso.org).
13. Axelos (www.axelos.com) — PRINCE2
14. ProjectManagement.com.

CHORVACHILIK TARMOG‘IDA GO‘SHT YETISHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Otabekov Javdod Nurulla o‘g‘li
Guliston davlat universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.15629241

Anotatsiya. *Mazkur bitiruv malakaviy ishda chorvachilik tarmog‘ida go‘sht yetishtirishni rivojlantirishning tashkiliy asoslari o‘rganilgan. Asosiy e’tibor go‘sht ishlab chiqarishni tashkil etishdagi mavjud muammolar, ishlab chiqarish hajmini oshirish, zamonaviy boshqaruv va marketing yondashuvlarini qo‘llash orqali tarmoq samaradorligini oshirish masalalariga qaratilgan. Ishda ilmiy-tahliliy yondashuv asosida chorvachilik subyektlarining faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Chorvachilik, go‘sht ishlab chiqarish, tashkiliy asoslar, iqtisodiy samaradorlik, innovatsiya, marketing, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ishlab chiqarish hajmi, boshqaruv tizimi.*

